

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIIY FAKULTETI

IJTIMOIIY MADANIIY FAOLIIYAT YO‘NALISHI

TO‘XTANAZAROV ALIMARDON ABDUMALIKOVICH

# **BITIRUV MALAKAVIIY ISHI**

MAVZU:      GLOBALLASHUV      SHAROITIDA      O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING MILLIIY G‘OYAVIIY NEGIZLARI

Ilmiy rahbar:    katta o'qituvchi B.X.Bo'ronov

**NAMANGAN – 2014**

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB. GLOBALLASHUV JARAYONI VA UNING ILMIY-METODOLOGIK JIHATLARI.....	14
1.1. Globallashuv jarayonida milliy g'oya shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari.....	14
1.2. Globallashuv sharoitida milliy mafkura muammolarini o'rganishning konseptual asoslari.....	22
IKKINCHI BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHKIL SIYOSIY STRATEGIYASI VA MAFKURALASHTIRISH MASALALARI.....	31
2.1. Milliy-madaniy markazlar - millatlararo totuvlikni mustahkamlashning muhim omili.....	31
2.2. Mafkuraviy poligonlarda globallashuv va O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining vazifalari.....	42
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	55

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi tufayli mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Davlatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mustaqilligi va demokratiyalashuv jarayonlari bevosita fuqaro ongi va tafakkurini keskin o'zgartiruvchi mafkuraviy omillar bilan bog'liq bo'lib, u jamiyatning barcha sohalaridagi taraqqiyotiga g'oyaviy yo'nalish beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir davlat o'z tub maqsad va manfaatlariga mos uni himoya qilishga qodir milliy g'oya va milliy mafkuraga tobora ko'proq ehtiyoj sezmoqda. Globallashuv jarayonining milliy g'oyaga ta'siri, uning o'zgartiruvchilik kuchi hozirgi dunyoning dolzarb muammosiga aylandi. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar hayotida ularning bir-biriga bog'liqligini, o'zaro ta'sirini oshiradi, milliy-ma'naviy va g'oyaviy hayotida aks etmasdan qolmaydi. Bugun nafaqat ma'naviy-mafkuraviy hayotimizdagi, balki kishilik jamiyatining barcha sohalaridagi o'zgarish va yangilanishlar turmushimizga goh ijobiy, goh salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanib borishi hamda axborot tarqatishning globallashuvi, bir tomondan, insoniyat taraqqiyotini, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kuchli mafkuraviy ta'sir vositalariga aylanmoqda.

Milliy g'oya jamiyat ma'naviy hayotining uzviy qismiga, kishilar, ijtimoiy va etnik guruhlar faoliyatining dasturiga aylanib bormoqda. Bu hol milliy g'oyaning ijtimoiy-tarixiy mohiyati va etnik jarayonlar bilan o'zaro aloqadorligini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga ko'proq, ehtiyoj sezmoqda. Milliy g'oyaning O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatida tutgan o'rni, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda millatlar va elatlarning umummilliy manfaatlariga xizmat qiladigan g'oya atrofida birlashib, turli yot va zararli g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirishning muhim jihatlarini o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

BMI mavzusining dolzarbligi globallashuv jarayonida, mintaqaviy va xududiy geosiyosatda etnik omil rolining oshayotgani bilan belgilanadi. “Bu xol, davlatning va mintaqaning xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan etnik va millatlararo mojarolar kelib chiqqudek bo‘lsa, ularning oldini olish maqsadida mazkur jarayonlarni muntazam ravishda ijtimoiy tahlil etib borishni zarur qilib qo‘yadi”<sup>1</sup>.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga katta e'tibor berib keldi va ko‘pmillatli mamlakatda millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish borasida o‘ziga xos tajriba orttirdi. Bunga faqat milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini tiklab, asrab-avaylash bilan cheklanmasdan, mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. Shu boisdan ham tarkibi va madaniyati jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil toptan jamiyatda millatlararo totuvlikni saqlab qolishga hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligini ta'minlaydigan qonunchilik bazasi yaratilishiga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish masalalari tub millat bo‘lgan, tarixan shu makonda yashab kelayotgan o‘zbeklarga alohida mas'uliyat yuklaydi. I.A.Karimov takidlaganidek, “Respublika aholisi o‘rtasida ko‘pchilikni tashkil qiladigan o‘zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o‘z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi ko‘p sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o‘ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o‘zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo‘lishdan iborat”<sup>2</sup>.

Mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikning muhim omillaridan biri millatlararo totuvlikdir. Turli millatlar istiqomat qiladigan har qanday ko‘p millatli

<sup>1</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1998. - Б.88.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - Б. 363.

davlatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti va kelajak taqdiri millatlararo munosabatlar barqarorligi bilan uzviy ravishda bog‘liq bo‘ladi. Nihoyatda extiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladigan bu masala ko‘p millatli davlatlar jumlasiga kiruvchi O‘zbekiston Respublikasi uchun juda dolzarbdir.

Ushbu vazifalarni hal etish Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining milliy-g‘oyaviy negizlarining mazmun-mohiyatini har tomonlama va chuqur tadqiq etishni talab qiladi<sup>3</sup>.

Millatlararo hamdo‘stlik, tinchlik, totuvlik - mustaqillik tufayli qo‘lga kiritgan eng katta yutug‘imizdir. Xalqlarimiz azaldan orzu qilib kelgan millatlararo do‘stlik, hamjihatlik, tinchlik, totuvlikka erishgan ekanmiz, endilikda bizning oldimizda turgan dolzarb vazifa - ana shu oliy ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni qo‘ldan bermay, avaylab-asrashimiz darkor. Bunga Respublikamizda yashovchi har bir inson-yoshidan, millatidan qat‘iy nazar, o‘z hissasini qo‘shmog‘i kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta I.A.Karimov ta'kidlaganidek, qo‘yilgan maqsadlarga erishishda, barqarorlikni ta'minlashda va mamlakatni yangilash borasidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq millatlararo va dinlararo tinchlikni va mamlakatdagi totuvlikni mustahkamlash borasida maqsadga yo‘naltirilgan ulkan ishlar, ma'naviy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish, tarixiy ildizlarimizga qaytish, axolining siyosiy ongi va huquqiy ongini oshirishga doir aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etdi<sup>4</sup>.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan O‘zbekistonning tashqi siyosati yo‘nalishlari, tamoyillari, xalqaro munosabatlarni mustahkamlashda millatlararo totuvlikning o‘ziga xos tajribasi, mintaqaviy mojarolarga qarshi kurashish, milliy

<sup>3</sup> Қаранг: Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008.

<sup>4</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. - Т.: Ўзбекистон, 2007. - Б.28

xavfsizlik va barqaror taraqqiyot masalalariga bag'ishlangan qator konseptual g'oyalar ilgari surilgan.

Milliy-g'oyaviy jarayonlar olim va tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, millat, milliylik, etnik munosabatlarning tarkib topishi va millatlararo munosabatlarni oydinlashtirishga qaratilgan I.Jabborov, R.Murtazaeva, R.Nurullin, V. Kozlov, F.Gekkamni tomonidan bir qator ilmiy ishlar qilingan.

Mustaqillik yillarida xalqimizning millatidan qat'i nazar milliy ong, milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish, ularni milliy istiqloq g'oyasi asosida birlashtirish, milliy qadriyatlar va ularning millatning o'zini-o'zi anglashidagi o'рни, milliy munosabatlarni boshqarishni takomillashtirishdagi ahamiyati, tolerantlik va ijtimoiy hamkorlik, o'zgarayotgan zamoy va milliy istiqloq g'oyasi, qadriyatlar ustuvorligi konsepsiyalarining yaratilishi masalalariga oid ilmiy izlanishlar A.G.Mo'minov, F.R.Abduraxmanov, S.Atamuradov, O.Ata-Mirzaev, A.A.Abdirazzaqov, I.M.Toshmatov, A.S.Achildiev, B. Xo'janov, Q.Nazarov, A.Musaev, N.Sh.Berdaliev, N.A.Nazarov tomonidan ushbu muammo doirasidagi tasavvurlarimizning chuqurlashishi, yangicha tafakkurning shakllanishiga xizmat qilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi<sup>5</sup>. A.S. Achildiev milliy istiqloq g'oyasining o'ziga xos xususiyatlarini, jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganib, millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi omil sifatida ilmiy tadqiq etgan bo'lsa, N.A.Nazarov jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivoji, ushbu jarayonlarning millatlararo munosabatlar hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy rivojiga ta'siri masalalarini o'rganib tahlil qilgan.

B.Xo'janov xalqaro munosabatlar nazariyasida geomafkura, millatlararo aloqalarda "geomafkura omili"ni tadqiq etgan bo'lsa, I.M. Toshmatov O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlarning ijtimoiy vaziyat, xususan oila va

---

<sup>5</sup> Назаров Қ. Миллий истиқлол ғоясининг асосий мақсад ва вазифалари. - Т., 2001; Ачилдиев А.С. Миллий истиқлол ғояси - миллатлараро муносабатларни такомиллаштириш омилли. Фалс. фанлар док. ...дис. автореф. - Т., 2004; Хўжанов Б. Геомафкуравий ўзгаришлар шароитида миллий-этниқ муносабатлар (Марказий Осиё мисолида). Сиёсий фан. номз. ...дис. автор. - Т., 2002.

nikoh muammolari, turli millatga mansub fuqarolar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarning xalqaro munosabatlarga ta'sirini, A.Musaev esa 1991-1997 yillarda millatlararo munosabatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini tadqiq etgan.

Markaziy Osiyo geosiyosati, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi o'rnini, xalqaro munosabatlar va xalqaro muloqotni mustahkamlash omillariga, millatlararo totuvlikning tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rniga bag'ishlab G.I.Karimova, R.M.Alimov, A.X.Pulatov, S.S.Safoev, K.Molodboev, NDJuraev, A.Karimova, E.Rtveladze, ye.M.Kuzmina, I.Fozilxujaev va boshqalar tomonidan ilmiy ishlar, risola va darsliklar yozildi<sup>6</sup>.

N.K.Jo'raev Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va taraqqiyot omilini O'zbekiston Respublikasi misolida o'rgangan, hamda mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi rahbariyati olib borgan ichki va tashqi siyosatni ob'ektiv ravishda tahlil qilgan bo'lsa, G.I.Karimova ilmiy tadqiqotlarida hozirgi kundagi O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotiga ichki va tashqi xavf-xatarlarning yo'nalishlari yoritilgan. Mintaqaviy hamkorlik, xalqaro tajriba va Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik masalalariga P.M.Alimov ilmiy ishlarida alohida e'tibor bergan. E.Rtveladze O'rta Osiyodagi qadimgi davlatlarining xalqaro munosabatlarini tarixiy nuqtai nazardan yoritgan bo'lsa, S.S.Safoev Markaziy Osiyodagi geosiyosat masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Millatparastlik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning umumjahon muammosiga aylanganligi, vayronkor g'oyalarning yoshlar ongi va qalbini zabt etish usullarining qizg'in tus olayotgani, bu boradagi yechimini kutib turgan muammolar O'zbekistonlik va Rossiyalik tadqiqotchilar A. Zakurlaev, B.Koppiters, T.Neyren, S.Otamurodov, M.Rajabova, A.Xasanov, U.Ubaydullaev, Z.Husniddinovlar tomonidan o'rganilgan<sup>7</sup>.

<sup>6</sup> Пулатов А.Х. Марказий Осиёда этносциал муносабатлар: назария, муаммолари, ечимлари. - Т., 2003; Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. ЮНЕСКО қатнашуви дастури доирасида чоп этилган - Т., 2005; Ғоявий иммунитет ёки халоскорлик туйғуси. - Т.: Ўзбекистон, 2001.

<sup>7</sup> Отамуродов С., Мамашакиров С., Холбеков А., Лафасов М. Марказий Осиё, ғоявий жараёнлар ва мафкуравий таҳдидлар. -Т.: Ижод дунёси, 2002; Убайдуллаев У. Халқаро терроризм тарихи ва замонавий

O‘zbekiston xalqaro munosabatlarining tamoyillari, globallashtirish sharoitida tashqi siyosatda milliy, tarixiy va madaniy omillarning rivojlanishi masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar G. A. Tabak, A.Fayzullaev, U.Saidov, S.Sharapova, I.Mavlanov, F.Tolipov, A.Karimova tomonidan bajarilgan<sup>8</sup>.

G.A.Tabak O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini amalga oshirishda tarixiy va madaniy an‘analarning ta’siri dialektikasi, millatlararo, xalqaro va umuminsoniy munosabatlarni rivojlantirishda asosiy omil sifatidagi rolini, uning ta’sir mexanizmlarini o‘rgangan bo‘lsa, A.Fayzullaev ilmiy tadqiqotida davlat shaxsiy ma’naviy konstrukt sifatida ilk marotaba tizimli o‘rganilgan va davlatlararo munosabatlarni ijtimoiy idrok doirasida birinchi marta batafsil tahlil qilingan.

S.Sharapova ilmiy ishida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining madaniy-tarixiy va ijtimoiy omillarini ochib bergan bo‘lsa, I.Mavlanov O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiyasining asosiy tamoyillarini va yo‘nalishlarini Prezident I.A.Karimov asarlari asosida yoritib, bu bilan milliy g‘oyaning tashqi siyosatdagi o‘rni alohida ekanligiga e’tibor qaratgan.

U.Saidov ilmiy ishlarida hozirgi davrda globallashtirish jarayonining xususiyatlari, madaniy globallashtirish muammolari, O‘zbekistonda madaniyatlararo muloqot sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati yoritilgan.

Davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatida mafkuraning o‘rni, geosiyosat masalalari, globallashtirish sharoitida diasporalarning xolati bilan bir qator Rossiya va xorijlik olimlar tomonidan ham e’tiborga loyiq bo‘lgan ilmiy-tadqiqot ishlari va monografiyalar nashr qilindi. Jumladan, V.Kuznetsov, Zb.Bjezinskiy, L.V.Andrichenko, G.M.Mengulova, E.A.Pozdnyakov, V.S.Kim, P.G.Kim, V.A.Tishkova, T.V.Poloskova, J.Braunli, R.ye.Miller, J.Valderama, Ya.Suleyman, Ya.Adams, J.J.Shvarsmantel va boshqalarning ishlarida muammoning nazariy

---

muammolari. -T.: Университет, 2002; Ражабова М. Диний экстремизм ва терроризмга қарши кураш муаммолари. - Т.: Ўзбекистон, 2003; Хусниддинов З. Ислоҳ: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар.-Т.: Мавороуннахр, 2000.

<sup>8</sup> Саидов У. Глобализация и межкультурные отношения. - Т.: Академия, 2008; Мавланов И. Основные направления внешней политики и дипломатии Республики Узбекистан в трудах И.А.Каримова. - Т., УМЭД, 2006.

jihatlarini ancha chuqur o'rganilgan. Zbignev Bjezinskiyning "Ulkan o'pirilish. Yigirmanchi asrda kommunizmning paydo bo'lishi va inqirozi" (1987) nomli kitobi XX asrda mafkuralashishning yangi bosqichiga bag'ishlangan bo'lib, kommunistik mafkuraning tub mohiyatini va uning inqirozga uchrashi sabablarini keng yoritgan. "Uzil-kesil xulosa shundan iboratki, markscha-lenincha siyosat uz mohiyati bilan tarixni va inson tabiatini noto'g'ri tushunishdir. Shunday qilib, kommunizm inqirozi ma'naviy inqirozdir. U inson turmushining asosini tashkil qiluvchi erkinlikka intilishini va ruhiy ehtiyojlarini yalpi savodxonlik va ommaviy axborot vositalari asrida va siyosiy tanlovning keng imkoniyatlariga intilishini hisobga ola bilmadi", – deb yozgan fikrlari bugungi kunda haqiqat bo'lib chiqdi. Hozirgi globallashuv sharoitida siyosiy voqeyelikda mavjud imkoniyatdan foydalanib, o'zaro yaqinlashuv, qardoshlik aloqalarini rivojlantirish yo'lini tutish yagona to'g'ri siyosat ekanligi namoyon bo'lmokda. Bu yo'lda milliy-g'oyaviy birlik sari intilish, ma'naviy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish va uni rivojlantirishni ta'minlash muhim omillardan biridir.

Rossiyalik sotsiolog V.Kuznetsovning konsepsiyasiga qaraganda bugungi kunda Rossiya "XXI asr birlashtiruvchi vatanparvar milliy mafkurasi"ni ishlab chiqish, yaratish zaruratini his qilayotganini isbotlashga harakat qilgan bo'lsa, G.M.Mengulova va T.V.Poloskova ilmiy izlanishlarida aynan xalqaro munosabatlarni mustahkamlashda diasporalarning o'рни va millatlar o'rtasidagi totuvlikni mustahkamlashda milliy mafkuraning muhim jihatlarini yoritishga e'tiborni qaratgan.

Yan Adams liberalizm, sotsializm, marksizm, konservatizm, anarxizm, fashizm mafkuralarining tamoyillarini o'rgansa, J.Shvarsmantel millatchilik, liberalizm va konservatizmning o'zaro aloqalarini va bugungi mafkuraviy inqirozning taraqqiyotga ta'siri kuchli ekanligi haqida fikr bildirgan. R.Kennet g'oya va siyosat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda konservatizm, liberalizm, sotsializm, feminizm mafkuralari asoslarining o'рни haqida fikr bildiradi va ushbu

asoslar faqat AQSh siyosiy hayoti tajribasiga to‘g‘ri kelishini isbotlashga harakat qiladi.

L.V.Andrichenko xalqaro munosabatlarda etnik va kam sonli millat, xalqlarning haq-huquqlarini himoya qilish muhimligini yoritib, xalqaro huquqda himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqadi, xorijiy davlatlardagi bu masaladagi qonuniy nazorat qiyosiy tahlil qilinadi. Ayniqsa, Rossiya Federatsiyasidagi millat va elatlarning haq-huquqlarini himoya qilish masalalaridagi tajribani tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratilgan<sup>9</sup>.

J.Braunli, R.ye.Miller, J.Valderama yapon mafkurasining davlat taraqqiyotidagi roliga alohida ahamiyat bergan. J.Braunli kokutay mafkurasini yoritishda “milliy mohiyat”, “milliy harakter”, “milliy siyosat” kabi konsepsiyani olga surgan bo‘lsa, R.ye.Miller “millat tuzilishi” deb, J.Valderama esa kokutayning tarixiy kelib chiqishi va bosqichlarini o‘rgangan.

Shunday bo‘lsa-da, globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining milliy-g‘oyaviy negizlarini, milliy xususiyatlar va mafkuraviy omilning tashqi siyosatga ta’siri dialektikasi, xalqaro munosabatlarni mustahkamlashda milliy g‘oyaning o‘rni, millatlararo totuvlikni barqarorlashtirishda o‘zlikni anglash, milliy va mintaqaviy manfaatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini o‘rganishning dolzarbligiga bag‘ishlangan mavzu doirasida qilingan ishlar deyarli yo‘q darajada. Mazkur ishning ilmiy yangiligi ham xuddi ana shu jihati bilan belgilanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** BMIning maqsadi globallashuv sharoitida milliy mafkuraning shakllanish bosqichlarini, jarayonlarini, uning O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatidagi o‘rni va jamiyatni tizimli modernizatsiya qilishdagi rolini politologik tahlil qilish, shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarni takomillashtirishdagi o‘ziga xos tajribasi, milliy-g‘oyaviy negizlari va uning

---

<sup>9</sup> Андриченко Л.В. Регулирование и защита прав национальных меньшинств и коренных малочисленных народов РФ. - М: Городец, 2005.

millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi o‘rni va rolini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

**BMIning vazifalari** quyidagilardan iborat:

- Globallashuv sharoitida milliy g‘oya asoslarini o‘rganish;
- O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tamoyillarining negizi sifatida milliy g‘oyaning o‘rnini tadqiq etish;
- Globallashuv jarayonida milliy-madaniy markazlarning millatlararo totuvlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida xalqaro diplomatik munosabatlarni mustahkamlashdagi o‘rnini aniqlash;
- Ko‘pmillatli davlatlarda diasporalarning o‘ziga xos va mos milliy xususiyatlarini saqlab qolish maqsadi, zarurati o‘rganilib, ularning xalqaro munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shayotgan hissalarini tahlil qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tadbirlarni tavsiya etish;
- Tashqi siyosatning keng qamrovliligini va milliy g‘oyaning hayotning hamma jabhalariga ta'sir qilishini hisobga olgan holda ushbu ilmiy ishda millatlararo totuvlik g‘oyasining tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdagi rolga alohida e'tibor qaratish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti** qilib globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining milliy-g‘oyaviy negizlari, millatlararo va davlatlararo munosabalarda milliy g‘oyaning o‘rni va roli olindi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** esa O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida umumplanetar muammolarni hal etish, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini teng huquqli manfaatlar asosida yo‘naltirish masalalarini tadqiq etishdan iborat.

**BMIning predmeti.** Globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining milliy-g‘oyaviy negizlarini o‘rganishda ilmiy tadqiq etishning tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-solishtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston davlati tashqi siyosatining global dunyo istikboli bilan bog‘liq bo‘lgan

jihatlari xorijiy va milliy mutaxassislar ilgari surgan fundamental g‘oyalar asosida qiyosiy tahlil etildi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi** quyidagilarda o‘z aksini topgan:

- Zamonaviy xalqaro munosabatlarda milliy-g‘oyaviy tendensiyalar qiyosiy tahlil etildi;

- Davlatlararo, mintaqalararo va xalqaro maydonda manfaatlar to‘qnashuvi sharoitida milliy g‘oya va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi masalasi o‘rganildi;

- Globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy strategiyasining negizi sifatida milliy g‘oya asoslari xalqaro tashkilotlar faoliyati bilan qiyosiy tarzda tadqiq etildi;

- Tashqi siyosatda milliy g‘oya muammolarini o‘rganishning konseptual asoslari o‘rganildi;

- “Mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan kuchlidir” (I.A.Karimov) konsepsiyasi global g‘oyaviy-siyosiy muammo oqimida o‘rganildi va tadqiq etildi.

- Xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlar milliy tafakkur va qadriyatlar asosida o‘rganildi;

- O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxonalar va milliy madaniy markazlar o‘rtasida hamkorlik tajribalari o‘rganildi, mavjud muammolar tahlil qilindi va tegishli xulosalar, takliflar ishlab chiqildi;

- Davlatning ichki va tashqi siyosatida milliy madaniy markazlarning roli va o‘rni muammosi tadqiq etildi;

- Mafkuraviy poligonlar kengayib, manfaatlar ustuvorligi globallashib borayotgan hozirgi sharoitda jahon hamjamiyatida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining shakllanish jarayonlari o‘rganildi.

**BMIning nazariy-metodologik asoslarini** Prezident I.A.Karimovning tashqi siyosat tamoyillari, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash, milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi, millatlar va konfessiyalararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, milliy g‘oyaning mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan asarlari va

nutqlarida bayon etilgan fikrlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari BMIning nazariy-metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi va xorijlik olimlarning globallashuv jarayoni, mafkura, milliy mafkura, diasporalar, millatlar, etnik va etnokonfessional munosabatlar, bugungi kundagi geosiyosiy va geomafkuraviy jarayonlar, tinchlik va totuvlikni asrashda millatlararo hamkorlikning ahamiyati, hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari ham tadqiqotning nazariy manbasini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** BMIning nazariy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalarning globallashuv sharoitida ko‘pmillatli davlatlar xalqaro munosabatlarida millatlararo totuvlikni barqarorlashtirish, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g‘oyaning o‘rni, mustaqillik sharoitida ko‘pmillatli davlatlarning tashqi siyosati milliy-g‘oyaviy asoslarini mustahkamlashning muhimligi bilan belgilanadi.

BMIning amaliy ahamiyati unda bayon etilgan mulohazalar, nazariy xulosalar va amaliy takliflardan xalqaro munosabatlarni barqarorlashtirishda muhim urin tutgan millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, milliy madaniy markazlar, xalqaro fond va tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

BMIdagi xulosa va nazariy umumlashmalardan asosan diplomatik kurslar va chet ellarga o‘qishga yuborilayotgan yosh mutaxassislar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilsa, ixtisoslashgan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun “Milliy istiqlol g‘oyasi”, “Mafkuraviy jarayonlarning geostrategik va global muammolari”, “Millatlar va milliy munosabatlar” kabi o‘quv kurslarini o‘qitish jarayonida samarali foydalanish mumkin.

**BMIning hajmi va tuzilishi.** Kirish, ikki bob, to‘rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **BIRINCHI BOB. GLOBALLASHUV JARAYONI VA UNING ILMIY-METODOLOGIK JIHATLARI**

### **1.1. Globallashuv jarayonida milliy g'oya shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari**

Hozirgi davrda jamiyatlar rivojlanishini globallashuv jarayonlarining odamlar mentaliteti, ma'naviy dunyosi, ijtimoiy hatti-harakatlariga ta'sirisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insonning keyingi taraqqiyot yo'llari globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy ongi, yo'naltiruvchi maqsadlari, qadriyatlarini, hayotiy tushunchalari, dunyoqarashi va oxir-oqibat uning jamiyat bilan munosabatlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'layotganiga bog'liq. Shuning uchun ijtimoiy va gumanitar fanlarda globallashuvning jamiyat hayotining nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, balki, madaniy va mafkuraviy sohalariga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratilmokda.

Globallashuvning inson va postindustrial jamiyatlar hayotidagi o'rni hamda roli haqidagi alohida qarashlar shakllanmoqda. Biroq bu jarayonlarning inson tafakkuri va ma'naviy dunyosiga ta'siri masalasiga yetarli darajada e'tibor berilmagan.

Vaholanki, g'oyalar globalizatsiyasi uzoq tarixga ega bo'lgan kompleks jarayondir. Globalizatsiya XX asr oxirida boshlangani yo'q,- Olimlar oxirgi 500 yil mobaynida insoniyat shu yo'ldan izchil harakat qilganini qayd etmoqdalar. Yangi dunyoning kashf etilishi, yer kurrasining doimiy transport marshrutlari bilan birlashtirilishi, migratsiya oqimlarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi va hokazolar shakllanayotgan globalizatsiyaning bosqichlari edi. O'tgan asrning oxiri bu jarayon misli ko'rilmagan darajada jadallashuviga olib keldi va globalizatsiya davri nomini oldi.

Endilikda jahonning chekka ulkalari yoki xilvat burchaklari mavjud emas. Barcha mintaqalar jahon iqtisodiyoti va yagona axborot maydonining tarkibiy qismlariga aylanmoqda. Xududlar va masofalar o'zining asl ma'nosini

yo‘qotadigan chegarasiz dunyo tushunchasi real shakl-shamoyil kasb etib bormoqda.

Tadqiqotchilar “global qishloq” (global village), “tizimga birlashgan jamiyat” (networked society) to‘g‘risida so‘z yuritmoqdalar. Ushbu jarayon sur'atlarining sifat jihatidan yangi darajasini ta'riflash uchun yangi atama - “giper globalizatsiya” atamasi qo‘llanilmokdagi<sup>10</sup>, u barcha jabhalar, chunonchi: iqtisodiyot, axborot, moliya, odamlar, tovarlar, pullar, g‘oyalar harakati jabhalarida xalqaro aloqalar tezligi tobora oshib borayotganini aks ettiradi.

Bu borada Prezident I.A.Karimov: “globallashuv - bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”,<sup>11</sup> - deb ta'kidlaydi.

Har qanday kompleks xodisa singari, globalizatsiya ham o‘ziga xos jihatlarga ega. Ularni ko‘rib chiqmasdan butun jarayon haqida to‘liq tasavvur hosil qilish mumkin emas. Ular o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqazo etadi. Bu globalizatsiyaning jihatlari bir-biridan ajratish mumkin emasligini anglatadi. Masalan, iqtisodiy globalizatsiyaga yo‘l ochib, axborot sohasidagi globalizatsiyani inkor etish mumkin emas.

Har bir qudratli sivilizatsiya o‘z taraqqiyotining cho‘qqisida dunyo miqyosida o‘z tartibini o‘rnatishga harakat qilgan. Uning maqsadi o‘z ichki qoida va me'yorlarini mumkin qadar keng tarqatish va shu tariqa uyg‘unlik va tartib xukm surgan yangi dunyo qurishdan iborat bo‘lgan. G‘arbdagi ko‘pgina tadqiqotchilar bozor iqtisodiyoti, vakillik, dunyoviy demokratiya, siyosiy plyuralizm va ochik jamiyat g‘oyalari hozirgi zamon globalizatsiyasining negizidir, degan fikrga qo‘shilmokdalar. Ularning fikricha, insoniyat tarixida birinchi marta yer kurrasida yashovchi kishilarning mutlaq ko‘pchiligi turmush tarzining asosiy tamoyillarini bir hilda tushuna boshlamoqdalar. Bu globalizatsiyaning g‘oyaviy negizini tashkil etadi.

<sup>10</sup> Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. - Т.: ЖИДУ, ЮНЕСКО қатнашуви доирасида чоп этилган, 2005. - Б. 47.

<sup>11</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: Маънавият. 2008. - Б. 111.

Globallashuv jarayoni va uning ilmiy-metodologik jihatlarini kengroq yoritish maqsadida avvalo globallashuv atamasiga jahon mutaxassislari va olimlarining bildirgan munosabatini o'rganishdan boshlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Rossiyalik siyosatshunos olim I.A.Utkinning "Globalizatsiya: protsess i osmyslenie" kitobining "Globalizatsiya: za i protiv" nomli 3-bobida globallashuv jarayonining mafkurachilari ikkita qoidaga alohida urg'u berishlarini ta'kidlagan. Bular: birinchidan, umumiy bozorda qatnashish har bir davlatga foyda keltiradi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarining, foyda va raqobatning ko'tarilishi natijasida har bir davlatda yutgan va yutqizganlar bo'ladi.

Amerikalik nazariyotchi N.Gleyzerning fikricha, globallashuv - bu butun dunyo miqyosida G'arb nazorati ostidagi ma'lumotlarning tarqalishidir. Ular kirib borgan davlatlarning qadriyatlariga qattiq ta'sir o'tkazadi. Uning fikrini Chexiya sobiq prezidenta Vatslav Gavel davom ettirib: "globallashuv bu avvalo madaniyatning globallashuvi, ya'ni g'arb sivilizatsiyasining, ayniqsa, amerikacha madaniyatning dunyo sivilizatsiyasiga ta'siri tushuniladi", - deydi.

Darhaqiqat, asrimiz boshida dunyo miqyosida yaratilgan zamonaviy texnika va texnologiyalarning 35,8 foizi AQSh zimmasiga to'g'ri keladi. Ushbu dalilga asoslanib iqtisodiy va madaniy globallashuvda AQShning yetakchilik mavqeyini tavsiflab amerikalik futurolog X.Makrey: "...bundan buyon ham AQSh barcha sohalardagi intellektual ustunligini saqlab qolishi, uning madaniyati, g'oyalari va tili butun dunyoda targ'ib etilishi shubhasiz",<sup>12</sup> -deb baholaydi.

Ular o'zlarining informatsion xurujlari bilan xalqni, ayniqsa yoshlar dunyoqarashiga qanchalik ta'sir etayotganini Rossiya davlati misolida ko'rish mumkin. Fap6 ommaviy axborotlari ta'sirida Rossiyada 1991-1995 yillarda o'z joniga suiqasd qilganlar soni 1,6 marta ko'paydi. Hozir o'rtacha 100 ming kishiga yiliga 40-42 ta ana shunday holat to'g'ri kelmoqda. Bu ko'rsatkich ayrim mintaqalarda 120-180 kishini tashkil etmoqda<sup>13</sup>.

<sup>12</sup> Баходир Зокир. Фарб ва шарк либерализми // Тафаккур. - Тошкент, 2004. - № 2. - Б. 19.

<sup>13</sup> Ганиев А. Фарб оламидаги ахлоқий муаммолар. - Т.: Борис, 2007. - Б. 17.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni tahlil qilish natijasida, AQSh g'oyalarini va madaniyatini targ'ib qilishda turli vosita va usullardan foydalanishi aniq, deyish mumkin. Masalan, Parijdagi siyosiy tadqiqotlar institutining professori A.Vallado fikricha: "...amerikacha jamiyatning madaniy qadriyatlari o'zga mamlakatlar qabul qilishi uchun oson kechadi. Chunki hozirda turli mamlakatlarda namoyish etilayotgan kino va videofilmlarning 4/3 qismi amerika maxsulotidir".<sup>14</sup> Binobarin, iqtisodiy-texnologik, moliyaviy globallasuv jarayoni, OAVning bugungi texnologik imkoniyati va Internet aloqasi mantikan turli mamlakatlarning madaniyati, ma'naviyati, intellektual hayoti, turmush tarziga uz ta'sirini o'tkazadi. Bu borada Prezident I.A.Karimov: "Globallasuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta kuzatishi muqarrar",<sup>15</sup> - deb ta'kidlaydi.

Demak, g'oyaga qarshi tura oladigan kuchli milliy g'oya bo'lishi kerak. Falsafa fanlari doktori, professor N.Shermuhammedovanning fikricha, mustaqillik yillarida milliy g'oyani shakllantirishda ko'pgina ijobiy ishlar qilinmoqda. Lekin, afsuski, qilinayotgan ishlar hamma vaqt ham samarali bo'layotgani yo'q. Shuning uchun ham xalqimizning o'ziga xos va mos bo'lgan manfaatlarini, qiziqishlarini chuqurroq o'rganish zarur"<sup>16</sup>. Masalan, falsafa fanlari doktori, professor S.Otamurodovning maqolasidan oddiy bir misol keltirish mumkin. O'zbekistonda chiqarilayotgan kitoblar, jurnallar va gazetalarni sotib oluvchilar soni rus va boshqa tillarda chiqarilayotgan kitoblarni sotib oluvchilarga qaraganda 5-6 marta kam. Eng karakterli jihati shundaki, axoli, ayniqsa yoshlar sotib olayotgan rus va xorij tillardagi kitoblar, jurnallar va gazetalar 10-15 barobar, xatto ba'zilari undan

<sup>14</sup> Гулметов Э. Глобаллашув жараёни ва маънавий кадрятлар // Миллий ғоя ва маънавий вадриятлар: назария, методология, амалиёт номли Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Т.: Файласуфлар миллий жамияти. 2005. - Б. 143.

<sup>15</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият - енгилмас куч. - Т.: Маънавият. 2008. - Б. 113.

<sup>16</sup> Шермухаммедова Н. Миллий истиқлол ғояси ва армия. Ўзбекистон Республикаси Мудофа Вазирлиги. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. - Т., 2004. - Б. 141.

ham qimmat turadi<sup>17</sup>. Demak, xalqimizning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy ehtiyojlari yetarlicha qondirilmayapti. Bu esa xorij g'oyalarining bemalol kirib kelishiga imkoniyat yaratmoqda. Vaxolanki, hych bir davlatda ma'naviy-mafkuraviy sohaga O'zbekiston Respublikasidagidek e'tibor berilayotgani yo'q. Buni birgina misol bilan izohlash kifoya. O'zbekiston Respublikasi Prezidenta I.A.Karimov 2000 yilni "Oila" yili deb e'lon qilib, bugunga qadar ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki globallashuv sharoitida milliy g'oyaning ilk kurtaklari avvalo, aynan oilada singdirilishi kerak. Rossiya Federatsiyasi sobiq Prezidenta V.V.Putin 2008 yilni "Oila" yili deb e'lon qildi va O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan g'oyalarni rossiyaliklar endigina rejalashtirmoqdalar.

Shuni ta'kidlash joizki, globalizatsiya tushunchasi, uning mohiyati, asosiy ko'rinishlari, tendensiyalari va oqibatlarini tevaragidagi munozaralar so'nggi yillarda nafaqat jonlandi, balki qizg'in tus oldi. Nafaqat ayrim jamiyatlar, balki butun dunyo bir-biriga qarshi kurash olib borayotgan "globalistlar" va "antiglobalistlar"ga ajraldi. Ayrimlar globalizatsiyani farovon turmush, tanlash huquqi va yanada ko'proq erkinlik, ya'ni kuchib yurish, to'liq axborot olish, ko'proq, haq to'lanadigan joylarda ishlash, eng yaxshi universitetlarda ta'lim olish erkinligi bilan bog'lamoqdalar. Boshqalar uchun esa bu insoniyatga tahdid soluvchi, global isish, atrof-muxitning ifloslanishi, nazoratsiz migratsiya oqimlari vujudga kelishi, ishsizlarning ko'payishi, an'anaviy qadriyatlarga putur yetishi kabi muammolarni tug'diruvchi jarayondir, deb baholashmoqda. Demak, globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'z ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. Umumiy olganda globallashuv tushunchasiga berilgan ta'riflar xilma-xil. Lekin uning xususiyatlarini to'larok qamrab olgani fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rifdir. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

---

<sup>17</sup> Отамуродов С. Ўзбекнинг “мен” и ёхуд ўзликни англаш машаққати // Фидокор. - Тошкент, 2004. 22 апрел. - № 35 (656).

- Globallashuv - muttasil davom etayotgan tarixiy jarayon;
- Globallashuv – jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni;
- Globallashuv - milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni.

Siyosiy fanlar doktori, professor N.A.Qosimovaning fikricha, globallashuv stixiyali hodisa bo‘lib, u ko‘pchilik xollarda globallashuv jarayonida qatnashuvchilarning hoxish-istaklariga va talablariga bog‘liq bo‘lmaydi<sup>18</sup>. Ushbu fikrdan kelib chiqib, globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta'siri ham turlicha ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun mazkur hodisa mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini jiddiyroq o‘rganish lozim. Bu hodisani chuqur o‘rganmay turib unga moslashish, kerak bo‘lganda, uning yo‘nalishini tegishli tarzda o‘zgartirish mumkin emas. Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari amalga oshirgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan guvohlik beradi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko‘proq samara va muvaffakiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyatini, yo‘nalishlarini, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur. Sotsiolog Baxodir Zokir ma'lumotlariga qaraganda “Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levittning 1983 yili “Garvard biznes revyu” jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan. “Muallif yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini shunday deb atagan”,<sup>19</sup> - deb yozadi B.Zokir.

“Globalizm - milliy hayotga tahdid demakdir”, - deb yozadi siyosatshunos Olim Toshboev<sup>20</sup>. Darhaqiqat, madaniy globalizatsiya sohasida ayovsiz kurash

<sup>18</sup> Qosimova N. A. Глобализация в мировой политике. - Т., 2004. - Б. 16.

<sup>19</sup> Баходир Зокир. Глобаллашув зиддияtlari // Тафаккур. - Тошкент, 2004. - № 1. - Б. 27.

<sup>20</sup> Toshboev O. Глобаллашув ва миллий маданият // Тафаккур. - Тошкент, 2006. - № 1. - Б. 20.

ketmoqda. Hatto globalizatsiya g'oyalarining beshigi bo'lgan yevropada ham "madaniy imperializm" haqidagi ovozlar tobora balandroq yangramoqda. Fransiyaning sobiq madaniyat ishlari vazirlaridan biri filmlar va teledasturlar orqali tarqatilayotgan va jamiyatning an'anaviy qadriyatlariga putur yetkazayotgan "Koka-kola-Mak-Donalds-Mikki-Maus" madaniyatiga qarshi kurashish zarurligini qayd etdi. Uning fikrlarini qisman rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovev davom ettiradi va "Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik", - deb ta'kidlaydi.

Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayriixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Globallashuvni faqat salbiy hodisa sifatida baholash va unga qarshi turish ijtimoiy hayotdagi turli tabiiy, ijtimoiy bog'liqliqlarni inkor etishga olib kelishi mumkin. Globallashuv jarayoni mafkuralashishdan, uning maqsadlaridan holi bo'lishi kerak. Bu jarayonni Hindistonning mashhur davlat arbobi Maxatma Gandi quyidagicha tasvirlaydi: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim ham berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayogan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman"<sup>21</sup>. Bugungi globallashuv sharoitida O'zbekistonga tashqaridan ijobiy g'oyalar bilan birgalikda yashash turmush tarzimizga, ma'naviyatimizga zid bo'lgan turli xil yot va zararli g'oyalar kirib kelmoqda. Aynan milliy g'oya bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza xavo bilan ta'minlab, ayni paytda "dovullar"dan saqlash omili ekanligini anglash muhim. Shuning uchun ham globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni "dovullar"dan saqlash, o'zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy g'oyadan muhimroq va kuchliroq vosita yo'q. Chunki milliy g'oyaning

---

<sup>21</sup> Миллий истиқлол ғояси. Масъул муҳаррир И.Эргашев. - Т.: Академия, 2005, - Б. 81.

muhim funksiyasi inson ongida bilim, tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi hisoblanadi.

Jahondagi hozirgi taraqqiyot jarayonlarining eng taniqdi tadqiqotchilari asarlarida berilgan ta'riflarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, globalizatsiya kishilik jamiyatidagi mahalliy ahamiyatga molik madaniy, axborot, iqtisodiy, geosiyosiy makonlarning bir tizimga birlashuvi jarayonidir.

Globalashuv, eng avvalo, milliy g'oyani qattik sinovdan o'tkazadi, so'ng uni obdan chiniqtirib, toblaydi. Bordi-yu mafkuraviy immunitet susayib zaiflashsa, milliy g'oya globalashuv jarayonining qurboniga aylanadi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur soxiblari mislsiz zaxmat chekkanini ko'ramiz. Sukrot va Platon, Konfutsiy va Zardo'sht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir. Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g'oyalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun xormay-tolmay mexnat qilganlar. Demak, globalashuv jarayonida har bir xalqning milliy g'oya atrofida jipclashuvi davr talabi. Chunki, Yu.V.Tixonravovning fikricha, milliy g'oyasiz milliy mafkura bo'lmaydi, milliy mafkurasiz esa milliy strategiya bo'lmaydi<sup>22</sup>. Hozir qaysi bir xalq, yoki mamlakat bulmasin, agar ilm-fan va texnologiya sohalari ravnakiga diqqat qaratilmasa, mafkura borasida ham orqada koladi. Masalan: AQSh, ingliz, farang, olmon, yapon italyan xalqlari ilm-fan va texnologiya sohalarida ilgorlik qilayotganliklari uchun ham umumjahon siyosatida yetakchilik ekanligini nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Lekin taraqqiyot uchun avvalo xalq mafkura atrofida birlashib olishi kerak.

---

<sup>22</sup> Гафуров С.М., Хайдаров А.А., Тулаганова Н.У. Сиёсатшунослик асослари. Ўқув қўлланма. - Т., 2006. - Б.86

Bugungi kunda ikki kutbli mafkura o'rtasidagi kurash barham topgan bo'lsa-da, ammo dunyoda mafkuraviy qarashlar to'xtab qolgani yo'q. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar turli yo'llar bilan sodir bo'lmoqda.

Globalashuv sharoitida xalqlarni mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular hozirgi OAV, ularning yutukdaridan hamda turli xil markazlar, ayni paytda o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli xududlarini uzlariga mos mafkuraviy muxitni shakllantirish maqsadlarini ham ko'zlamokdalar.

Ana shunday sharoitda milliy istiqlol g'oyasiga tayanish orqaligina mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlar mohiyatini to'g'ri tushunish va milliy g'oyaga tayanib, yot g'oyalarga qarshi kurashish mumkin.

## **1.2. Globalashuv sharoitida milliy mafkura muammolarini o'rganishning konseptual asoslari**

Globalashuv jarayoni natijasida yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovo'zlik o'rtasida chegaralarning, bir so'z bilan aytganda, hayotga, tiriklikka xos xilma-xillik tobora kamayib borayotganini, insoniyatning eng kuchli, eng qudratli kurol - turli shaklu-shamoyil kasb etayotgan g'oya va mafkuralardan ta'sirlanayotgani oqibati ekani tobora oydinlashib bormoqda. G'oya o'ziga xos tizimni shakllantirish xususiyatiga eta bo'ladi. Agar ana shu tizim to'liq, shakllanib, takomillashea, u mafkuraga aylanadi. Shuning uchun mafkuraning shakllanishi g'oyaning shakllanishiga nisbatan uzok davom etadigan murakkab jarayondir.

Mafkuraning hayotbaxsh kuchi, avvalo, insonning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini qanday tushunish va uni qanday ijtimoiy makomda tasavvur etishga bog'liq. Chunki insonni ijtimoiy harakat va faoliyatga undash, shu tariqd kuzlangan muayyan maqsad-vazifalarga erishish dunyodagi barcha mafkuralarning

ma'no-mohiyatini tashkil etadi. Mafkuraga xos xususiyatlar haqida R.Z.Jumaev: “Mafkura muayyan maqsadlar yo‘lida o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan insonlar o‘rtasidagi munosabat, kishilarning o‘zini va bopshalar o‘rtasidagi o‘rnini anglashi, baxolashi va shu asosda mavjud ijtimoiy munosabatlar rivojiga yoki aksincha, uning barham topishiga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyatlarining modeli”<sup>23</sup>, - deb baxolaydi.

Globalashuv jarayonida davlatlarda milliy mafkuraga ehtiyoj haqida gapirilayotgan bir vaqtda, O‘zbekiston Respublikasi olimlari tomonidan bu borada bir talay ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida g‘oya va mafkura tushunchalari, milliy g‘oya va milliy mafkura maqsadi, o‘zaro munosabati va zarurati har tomonlama keng yoritilgan. Xususan, A.Norboev "g‘oyalarning amalga oshishini ta'minlovchi usullar, vositalar, mexanizmlar tizimi - mafkura demakdir"<sup>24</sup>, - deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrni Sultonmurod Olim mazmunan davom ettirib: “Milliy mafkura - mohiyatan milliy g‘oyaga yetish yo‘li. Ilmiy tarzda aytganda, agar milliy g‘oya nazariya bo‘lsa, milliy mafkura - taktika”<sup>25</sup>, - deb yozadi. Lekin ushbu fikrlarni tahlil qilib, qachon milliy istiqlol g‘oyasi milliy mafkuraga aylanadi? degan savol tug‘iladi.

"Har narsaning o‘z ibtidosi va intihosi, ya'ni boshlanishi va oxiri bo‘ladi. G‘oyalar ham o‘z “umr”iga ega.Ular ham ma'lum makonda va zamonda paydo bo‘lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo‘shishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, uz umrini yashab, joziba kuchi va kuvvatini yo‘qotgach, tarixiy xotiraga aylanishi mumkin”<sup>26</sup>. Demak, milliy istiqlol g‘oyasi mustaqillikka erishilgan ilk davridayok o‘ziga xos harakter kasb etadi. Bu davrda u aynan istibdod mafurasi va amaliyotiga qarama-qarshi o‘larok, shakllana boshlaydi<sup>27</sup>. Mustaqillikka

<sup>23</sup> Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистон: становление и развитие. – Т.: Фан, 1996. – С.156.

<sup>24</sup> Норбоев А. Ғоялар тарғиботида тушунчалар муносабати. // Миллий истиқлол ғояси тарғиботининг илмий асослари. - Т., 2002. - Б.44.

<sup>25</sup> Султонмурод Олим. Халқ таянадиган куч. - Т.: Маънавият, 2001. - Б. 5.

<sup>26</sup> Ортиқов М., Усмонов М. Ғоя ва мафкура. - Т.: Янги аср авлоди, 2001. - Б. 10-11.

<sup>27</sup> Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2004. - Б. 15.

erishilgandan so'ng o'zgacha harakter kasb etadiki, bu uning oldida turgan vazifalarda yorquin namoyon bo'ladi va milliy mafkura darajasiga ko'tariladi.

Mamlakatimiz uchun milliy mafkura masalasining hayotiy ehtiyojning in'ikosi bo'lganini ta'kidlagan holda, ayrim tadqiqotlarga ko'ra bunday ehtiyoj quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Respublikaning iqtisodiy mustaqilligi va suverenitetini ta'minlashdek asosiy strategik vazifalarni hal qilishga mexnatkashlarni yo'naltirish;

- Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mustaqil, o'ziga xos, munosib yo'lini tanlash va e'tirof etish;

- Barcha millatlar va elatlar, sinflar, ijtimoiy guruhlarning birligiga asoslangan, yagona milliy uygonish frontini vujudga keltirish borasidagi davlat va jamiyat manfaatlari;

- Sifat jihatdan yangi mafkuraviy qadriyatlarga yo'naltirilgan shaxsning yangi tipini shakllantirishdir.

Globalashuv jarayonida milliy mafkuraning zaruriyligi o'zbek modelini amalga oshirishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbek modelining asoschisi I.A.Karimov rahbarligida amalga oshirilayotgan taraqqiyot yo'lining ko'pchilik boshqa milliy modellardan fark, qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma'nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modeli hamdir. U, avvalo, O'zbekiston Respublikasining mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydi hamda muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va muljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi.

Istiqlolning dastlabki yillarida Prezident I.A.Karimov tomonidan jamiyatni isloh, etishning chuqur ilmiy asoslangan besh tamoyili ishlab chiqildi. Ular O'zbekistonning uz istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda,

jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilgor yutuklariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Milliy g'oya mamlakatimizda barpo etilayotgan jamiyat va taraqqiyotning o'zbek modeli bilan uzviy bog'liqlir. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida, xalqimizni pirovard maqsadlar yo'lida uyushtiruvchi omil, ijtimoiy faoliyatning ma'naviy mezoni sifatida uz ahamiyatini saqlab qolaveradi. "Mafkura hozirgi davrga kddar ijtimoiy guruhlar uchun o'zini identifikatsiyalash, o'z maqsadlarini aniqlash vositasi bo'lib xizmat qilmokda"<sup>28</sup>, - deydi M.Qirg'izboev.

Prezident I.A.Karimov 1993 yil Shveytsariyada "Fond Forum" xalqaro iqtisodiy tashkiloti IV sessiyasida katta nutq, so'zladi va o'zining mamlakatni tubdan isloh, qilishga doir ana shu besh tamoyilini dunyo minbaridan turib e'lon qildi. Uning chiqishi yangi davlat rahbarining naqadar keng imkoniyatlari, zamonaviy va ilgor qarashlari yorquin ekanligini ko'rsatdi. Bu konsepsiya jahon davlatchiligi nazariyasi va amaliyotini yangi tarixiy sharoitlarda rivojlatirishga muhim hissa bo'lib qo'shilganligi mutaxassislar tomonidan alohida ta'kidlandi. Shveytsariya konferensiyasi Prezidenti Odolf Ogey: "Muammolarni hal qilish va davlat rivoji yo'lini aniq ko'ra biladigan Islom Karimovdek Prezidenti bo'lgan O'zbekiston, o'z kelajagi uchun xavotirlanmasa bo'ladi"<sup>29</sup>, - deb ta'kidladi.

Respublikamiz olimlari tomonidan qilinayotgan ilmiy ishlarning asosiy maqsadi, xulosalari globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenta I.A. Karimov asarlarida shakllangan milliy mafkura rivojlanish konsepsiyasiga binoan: "g'oya—mafkura—tizim-siyosat" kabi struktura asosida hosil bo'lishi bilan uyg'undir. "Oldin g'oya paydo bo'ladi keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi"<sup>30</sup>.

<sup>28</sup> Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. - T.: Shark, 1998. - B.78.

<sup>29</sup> Juraev H.K. Agar o'goh, sen... Portretga chizgilar. - T.: E'zuvchi, 1998. - B. 200.

<sup>30</sup> Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq etikodi va bуюk kelaжакка ишончдир // Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon хаёт - pirovard maqsadimiz. 8-жилд. - T.: Ўзбекистон, 2000. - Б. 465.

Mamlakatimizni rivojlantirish xususidagi asosiy xulosa va tamoyillar Prezident I.A.Karimov asarlarida o‘zining teran, mukammal ifodasini toptan. Ularda jamiyatimizning pirovard maqsadlariga yetishning mafkuraviy yo‘nalishlarini aniq, ifodalaydigan yaxlit ta’limot — milliy istiqlol g‘oyasining mohiyati, mazmuni, tushuncha va tamoyillari, o‘ziga xos xususiyatlari ham ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu asarlarni o‘rganish, nafaqat yurtimizda barpo etayotgan jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy poydevorini mustahkamlash, balki globallashuv sharoitida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, shu orqali millatlararo totuvlikni mustahkamlash yo‘lidagi muammolarni hal etishda milliy istiqlol g‘oyasining zaruratini taqazo etadi.

Bu g‘oya dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab borayotgan mamlakatimiz xalqining istiqlol yillarida orttirgan tajribalari, bosib o‘tgan murakkab va shonli yo‘li, milliy taffakuri va ma’naviyatidagi yuksalishlarning mantiliy natijasi, xalq irodasining mujassam ifodasi sifatida shakllanadi.

Globalashuv sharoitida jamiyatimiz a’zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va manfaatlarini o‘zida ifodalaydigan milliy g‘oya va mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotimizning muhim sharti bo‘lib qoldi. “Oldimizga qo‘ygan olijanob maqsad va muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo‘lish, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, begona va yot g‘oyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqazo etmoqda”<sup>31</sup>.

Milliy istiqlol g‘oyasi ana shu zaruratning natijasi bo‘lgan nazariya va ta’limot sifatida o‘zining tarixiy ildizlari, ilmiy asoslari, o‘ziga xos tushuncha va

---

<sup>31</sup> Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulimiz. 9-jild, - T.: Ўзбекистон, 2001. - Б. 220.

tamoyillarga ega yaxlit tizimni tashkil qiladi. Bu tizim mutlak o'zgarmaydigan va qotib qolgan fikrlar majmuasi emas, balki zamon talablari, ijtimoiy voqeyelikdagi rivojlanish jarayonida boyib boradigan tushuncha va tamoyillarni uzida ifodalaydi. Uning tuzilishi va tizimi Prezidentimiz asarlari asosida tayyorlangan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida o‘z aksini toptan.

2001 yil 18 yanvarda qabul qilingan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani buyicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishida milliy istiqlol g‘oyasini, avvalo, yoshlarimiz ongiga singdirishga qaratilgan o‘quv, ilmiy-uslubiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash va yanada takomillashtirish maqsadida bir necha vazifalarni amalga oshirish taklif etildi va bajarilishi jarayonida konsepsiya darajasiga ko'tarildi<sup>32</sup>.

Masalan, Farmonda “Milliy istiqlol g‘oyasini yoshlar ongiga singdirishda, darslarning noan'anaviy shakl va uslublarini ishlab chiqish, ularni eksperimental maydonchalarda sinovdan o'tkazish, ijobiy natijalarni yangi o‘quv yilidan ta'lim jarayoniga keng joriy qilishni ta'minlasinlar”, - deyilgan. Ushbu Farmonni amalga oshirish maqsadida darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya va maqolalar chop etildi. Lekin ushbu yutuqlarga qaramay ko'pchilik maqsad va vazifalar amalga oshmay qolib ketmoqda.

“Sir emaski, har kaysi davlat, har kaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir”<sup>33</sup>.

O‘zbekiston boy tarixiy merosi, ma'naviy-axloqiy an'analari, jahon madaniyatiga kushgan bebaho hissasi uning xalqaro munosabatlarning sub'ekti sifatida shakllanishining, faol tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi haqida so‘zlar ekan, Prezident I.A.Karimov shunday ta'kidlaydi: “Biz, eng avvalo,

<sup>32</sup> Каримов И.А. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар фани буйича таълим дастурларини яратиш ва республика таълим тизимига жорий этиш тўғрисида Фармойиш // Халқ сўзи. – 2001 йил, 19 январь. - № 14 .

<sup>33</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон. - Б. 326.

ma'naviyat, ilm-fan, madaniyat, maorif va axborot sohaslarini integratsiyalashishga da'vat etamiz”<sup>34</sup>. Bu, shubhasiz, milliy istiqlol g‘oyasining maqsaddariga mos kelgan holda, o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosini xalqaro miqyosda namoyish qilishga xizmat etadi.

O‘zbekiston YUNESKO doirasida faol ishtirok etmoqda. Uning fan va madaniyat sohasidagi samarali faoliyatini nazarda tutib, tashkilotga a'zo davlatlar 1997 yili O‘zbekiston Respublikasi rahbar organ - Ijroiya Kengashga saylashdi.

YUNESKO bilan hamkorlik sohasidagi muhim bosqich O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta I.A.Karimovning 1996 yil aprel oyida Parijda YUNESKO qarorgoxida bo‘lishi bilan bog‘liq. O‘zbekiston rahbari YUNESKO Ijroiya Kengashi a'zolari oldida nutq, so‘zlab, Amir Temurning 660 yilligiga bag‘ishlangan “Temuriylar davrida fan va madaniyat taraqqiyoti” xalqaro ko‘rgazmasining ochilishiga bag‘ishlangan tantanalarda ishtirok etdi. Milliy madaniyat, tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrash va rivojlantirish hamda YUNESKO bilan xdmkorlikni mustahkamlash borasida ulkan hissasi uchun I.A.Karimov Ibn Sino nomidagi Oltin medal bilan taqdirlangan edi. YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-yakunlovchi majlisining 1998 yil 6-7 noyabr kunlari O‘zbekistonda o‘tkazilganligi va unda “YUNESKOning a'zo mamlakatlarda faoliyati va jahon madaniyati” Toshkent deklaratsiyasining qabul qilinishi katta tarixiy-madaniy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

“Men madaniyat va ma'rifat dunyoni jaholat va vahshiylikdan, diniy va milliy ekstremizmdan, etnik qarama-qarshilik, mintaqaviy mojaro va urushlardan saklay olishiga ishonaman.

Bugun dunyoga mashx,ur rus yozuvchisi Dostoevskiyning “Dunyoni go‘zallik qutqaradi” degan mashhur iborasini biroz o‘zgartirib, kirib kelayotgan "XXI asrda dunyoni madaniyat va ma'rifat qutqaradi, deb aytgan bo‘lardim”, -<sup>35</sup> deb ta'kidlaydi I.A.Karimov.

<sup>34</sup> Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - Б. 334.

<sup>35</sup> Каримов И.А. ЮНЕСКО Ижроия Кенгаши 155-сессиясининг якунловчи мажлисида сўзлаган нутқи // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. - Т.: Ўзбекистон, 1999. 7-жилд. - Б. 194 .

Mustaqillikning o'tgan davrida O'zbekistonda turli xalqaro va mintaqaviy forumlar o'tkazildi. Jumladan: 1995 yili "Kurolli mojarolar sharoitida madaniy merosni asrash", 1997 yili "Madaniyat sohasini moliyalashtirish" nomli xalqaro anjumanlar o'tkazildi. Shuningdek, 2000 yili o'tkazilgan "Samarqandning moviy chinnisi", "Jahon dinlari jahon madaniyati yo'lida", "Sufizm va dinlararo muloqot" mavzuida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalar jahon madaniyati taraqqiyotida O'zbekistonning o'rni muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, globallasuv jarayoni yer yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy boglab qo'yimoqdaki, buni bashariyat tarixida shu paytga qadar hech kaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib bormoqdaki, hozirdanoq dunyoning biron xududi uning ta'siridan holi qolayotgani yo'q. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu xodisaning mohiyatini chuqurroq anglagan, uning xususiyatlarini o'rgangan holda milliy g'oyaga suyanish va asoslanish lozim.

Chunki milliy g'oya xalqni birlashtirib, jamiyatni jipslashtiruvchi, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Jahondagi globallasuv jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojini keskin kuchaytiradi. E'tibor berilsa, globallasuv bulmaganda, milliy g'oyaga ham ehtiyoj sezilmas edi. Chunki globallasuv bulmaganda har bir xalq o'zligini saklagan va rivojlantirgan xolda yashar edi.

Globalashuv sharoitida milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning tahdidini keng tashvikrt qilish va unga qarshi kurashda jahon xalqlari birligini vujudga keltirishdir. Shunng uchun ham milliy rivojlanishga qaratilgan g'oyalarda jahon xalqlarining birligini vujudga keltirishning umuminsoniy g'oyaga aylanishi bugungi kun dolzarb vazifasiga aylangan.

XXI asrda "mafkuraviy", "mafkuralashtirish", "mafkuraviy makon" , "mafkuraviy poligon", "mafkuraviy immunitet", "mafkuraviy profilaktika" kabi

tushunchalar insonning zamonaviy va milliy an'analarning uyg'unligidagi madaniy saviyasi, insonparvarligi, ozodligi va mas'uliyati tushuniladi; insonlarning tinchlik madaniyati, muomala va xavfsizlik madaniyatini amalga oshirish yo'lida hamkorlikning muhimligi anglanadi; xalqaro terrorizm va zararli mafkuralarning tarqalishiga qarshi birgalikda kurashish tushuniladi.

Globalashuv asrida dunyoda ko'p madaniyatlar bo'lgani kabi, ko'p mafkuralar ham mavjudligi tarixiy krnuniyatdir. Demak, har qanday jamiyat, har qanday xalq, va davlat tarixiy taraqqiyotning muayyan davriga xos iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyot tamoyillariga ega bo'lgani singari, o'z rivojining pirovard maqsadlariga xizmat qiladigan g'oya va mafkuraviy tamoyillarga ham ega bo'lishi zarur. Bunday g'oyaning asosini esa quyidagilar tashkil etadi:

- o'zini tashkil etib turgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilmalariga mos keladigan, o'zini turli yot va zararli mafkuralarning xurujidan saqlashga xizmat qiladigan g'oyalar tizimiga ega bo'lishi zarur;

- o'zining tarkibiy tuzilishiga mos keladigan g'oyaviy-mafkuraviy tizimga ega bulmas ekan va shu asosda o'ziga mansub axolida mafkuraviy immunitetni hosil kila olmas ekan, o'zini ichdan yoki tashqaridan buzishi mumkin bo'lgan begona g'oyalarning ta'siri uchun ochiq nishon bo'lib qolaveradi.

- Globalashuv jarayonida milliy mafkuraga axborot xuruji kuchli ta'sir o'tkazadi. Bu bevosita davlatlararo munosabalarda va davlatlar tashqi siyosatida milliy-g'oyaviy asoslarga tayanishni takozo etadi. Har bir davlat o'z siyosiy manfaatlari doirasida o'z milliy-siyosiy qiyofasini yo'qotmasligi lozim.

- "Mafkura", "siyosat", "xalqaro munosabatlar" va "tashqi siyosat" tushunchalari davlat fenomeniga aylanmogi kerak va u, albatta, har bir davlat tub aholisi milliy mentalitetiga tayanmog'i kerak.

-

## **IKKINCHI BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSIY STRATEGIYASI VA MAFKURALASHTIRISH MASALALARI**

### **2.1. Milliy-madaniy markazlar - millatlararo totuvlikni mustahkamlashning muhim omili**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekiston millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish orqali xalqaro munosabatlarini mustahkamlashga katta e’tibor berib keldi. Bunga faqat milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmasdan, mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi.

Ma'lumotlarga ko‘ra, bundan yuz yil avval respublikamiz xududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. Oradan 30 yil o‘tgach, bu son 91 taga, 1959 yili 113 taga, 1979 yili 123 taga yetdi. Oxirgi o‘tkazilgan axolini ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra, respublikamizda 136 millat va elat vakillari inoq, bir tanu-jon bo‘lib, tinchlik va osoyishtalikda yashab kelmoqda. Etnik tuzilishi jihatidan axolining 80 foizni o‘zbeklar, 5,5 foizini ruslar, 5 foizini tojiklar, 3 foizini qozoqlar, 2,5 foizini qoraqalpokdar, 1,5 foizini tatarlar va 2,5 foizini boshqa millat vakillari tashkil qiladi<sup>36</sup>.

Millatlar totuvligini ta'minlaydigan ikkita muhim omilni alohida ko‘rsatib utishimiz kerak. Bularning birinchisi, milliy va diniy nizolarning oldini olishga qaratilgan kuchli mafkura xukmronligi mavjud bo‘lishi talab etiladi. Ikkinchidan, boshqa mintaqa xalqlari bilan savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarga kuchli ehtiyoj bo‘lishi zarur.

Prezident I.A.Karimov o‘z asarlarida milliy totuvlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlab beruvchi eng asosiy omil ekanligini ta'kidlab keldi. Ayniqsa,

---

<sup>36</sup> Xasanov A., Muнавваров З., Сирожиддинов Ш. Ўзбекистон: динлараро ҳамжиҳатлик - тинчлик гарови. ЮНЕСКО. - Т., 2005. - Б. 30

"O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida bu masalaga maxsus to'xtab, ko'pmillatlilik, agar har bir millatning milliy ehtiyojlarini inobatga olib siyosat olib borilsa, mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, demokratik jarayon jadallashishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atining o'sishi yuz berishiga asos bo'lishi mumkinligi tarixda isbot qilingan haqiqat ekanligi to'g'risida gapirib o'tadi. Agar milliy ehtiyojlar inobatga olinmasa yoki keyingi qatorga tushirib qoldirilgan taqdirda esa "... butun-butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiy-siyosiy falokatlarga olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim davlatlarning, balki butun-butun mintaqalarning xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylanadi",<sup>37</sup> - deb ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", deb aniq belgilab qo'yilgan.<sup>156</sup> "O'zbekiston xalqi" tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad sari mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyamizda "O'zbekiston Respublikasi o'z xududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi",<sup>38</sup> - deb ta'kidlangan.

Hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan qaraganda, har qanday milliy madaniyat turli xalqlar madaniyati bilan uzviy hamkorlikda rivojlanmog'i lozim. Ana shu jarayonda bir madaniyat ikkinchisiga ta'sir o'tkazadi, shuning barobarida, o'zi ham boyib boradi. Milliy-madaniy qobiqdan chiqmaslik, o'zga xalqlar madaniyatiga mensimasdan munosabatda bo'lish taraqqiyot yutuqlaridan ortda qolishga olib keladi. Boshqa bir madaniyatga ko'r-ko'rona ergashish esa millatning

<sup>37</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизлика таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. - Б. 71.

<sup>38</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2003.

inqirozi bilan teng bo'lgan fojidir. Shu bois madaniy munosabatlarda me'yor tuyg'usini unutmaslik kerak.

Madaniyatlararo integratsiya avj olayotgan hozirgi davrda masalaning murakkab va ziddiyatli ekani tobora yaqqolroq namoyon bo'layotir. Bir tomondan, ayrim xalqlar madaniyati boshqalarning rivojiga, ularning jahon tamadduniga yaqinlashuviga yordam bermoqda. Ikkinchi tarafdan, ba'zan rivojlangan xalqlar madaniyati taraqqiyotdan ortda qolgan millatlar madaniyatini yutib yubormoqda. Ularga kuchli ta'sir o'tkazib, o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini, qadriyatga aylangan urf-odat va an'analarini poymol etayotir. Ta'kidlash kerakki, jahon tamadduni yutuqlariga ko'r-ko'rona ergashish milliy o'ziga xoslikni zavolga mahkum etadi.

Madaniyatlararo integratsiya eng avvalo ma'rifiy mezonlar va umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilmog'i lozim. Afsuski, har doim ham bunga erishilyapti, deb bo'lmaydi. Aksariyat xollarda oz sonli millatlarni bosqichma-bosqich milliy o'zligidan ayirishi, milliy an'analari va urf-odatlariga zarba berib, tarixiy ildizlarini kirkish, shu orqali ular ustidan xukmronlikka erishish tamoyili kuchaymoqda. Jahon axborot bozorining tobora kengayib borayotgani, xususan, Internet tizimining rivoji, bir jihatdan, hozirgi zamon tamaddunining nodir va mo'jizakor yutug'i bo'lsa, ikkinchi tomondan, buzg'unchi g'oyalar, tajovuzkor mafkuralar osonlik bilan kirib kelishiga yo'l ochib berayotir. Xalqlar va millatlarning fikrini chalg'itish vositasiga aylanayotir.

Ana shunday murakkab g'oyalar kurashi, mafkuralar qarama-qarshiligi, axborot xuruji avj olgan bir paytda milliy madaniyatni asrash har qachongidan ham muhim bo'lib qoldi. Bu har bir fuqaroning ma'naviy va ma'rifiy saviyasiga, axloqiy kamolot darajasiga, mamlakat va millat taraqqiyoti uchun daxldorlik tuyg'usining kay darajada shakllanganiga ham bog'liqdir.

Millatlararo hamdo'stlik, tinchlik, totuvlik - mustaqillik tufayli qo'lga kiritgan eng katta yutug'imizdir. Xalqlarimiz azaldan orzu qilib kelgan millatlararo do'stlik, hamjihatlik, tinchlik, totuvlikka erishgan ekanmiz, endilikda bizning

oldimizda turgan dolzarb vazifa - ana shu oliy ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni kuldan boy bermay, avaylab-asrab, kuz qorachig'iday ehtiyot qilib, saqlab qolish ustida doimiy harakat qilishimiz darkor. Bunga Respublikamizda yashovchi har bir inson - yoshidan, millatidan qat'i nazar, o'z hissasini qo'shmog'i kerak.

Shu boisdan ham o'zining tarkibi va mazmuni jihatdan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil toptan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlab qolish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining tent huquqliligini ta'minlaydigan qonunchilik bazasi yaratilishiga alohida e'tibor berildi va bu borada bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanok, milliy-madaniy markazlar faoliyatiga keng yo'l ochib berilishi, xususan, Respublika Baynalmilal madaniyat markazining tashkil etilishi ham ana shu hayotiy tadbirlardan biri bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1992 yil 13 yanvar Qaroriga asosan tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi o'zining ish yo'nalishlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni hamda markaz huzurida tashkil etilgan maxsus Ijtimoiy Kengash yo'llanmalari asosida belgilaydi va amalga oshiradi. Mazkur Ijtimoiy Kengash tarkibiga baynalmilal markaz rahbariyati, milliy-madaniy markazlar raislari, qator vazirliklar, idoralar va jamoat tashkilotlarining axillari, shuningdek, milliy masala bilan shug'ullanuvchi yetakchi olimlar kiritilgan.

Markazning asosiy maqsadi va vazifasi respublikadagi milliy munosabatlarni uyg'unlashtirish, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatlar va elatlarning milliy ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, ya'ni ularning har biriga xos bo'lgan tamoyillar, urf-odat va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga amaliy va uslubiy jihatdan yordam berish hamda Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini juda muhim omillaridan biri bo'lmish millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashdan iboratdir<sup>39</sup>. Prezidentimiz I.A.Karimov Respublika Baynalmilal

---

<sup>39</sup> Джуроаев К., Икрамов А., Мирхаликов Д., Хуснидинова М. Межкультурный диалог в Узбекистане. Подготовлен в рамках программы ЮНЕСКО "Межкультурный диалог в Центральной Азии". - Т., 2007. - С.

markazini tashkil etilganining 15 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish qatnashchilariga tabrik so‘zida: “Respublika baynalmilal markazi o‘z faoliyati davomida mamlakatimizda millatlararo va fuqarolararo totuvlikni yanada mutaxkamlashga qaratilgan yangi g‘oya va tashabbuslar paydo bo‘layotgan haqiqiy do‘stlik uyiga aylandi”, -deb baho beradi. RBMM 15 yilligi munosabati bilan milliy-madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to‘g‘risida 2007 yil 19 yanvar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta Farmoni e‘lon qilindi va 8 kishi “Do‘stlik” ordeni, 4 kishi “Shuxrat” medali va 3 kishi "O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan mukofotlandi<sup>40</sup>.

1991 yil mamlakatimizda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2004 yil fevralida ularning soni 137 taga yetdi<sup>41</sup>. Bugungi kunda 150 ga yaqin milliy-madaniy markazlar o‘z faoliyatini olib bormoqda<sup>42</sup>. Shu yo‘nalishda markazlar tuzish bo‘yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

Viloyatlar buyicha olinganda Qoraqalg‘istonda 5ta, Andijonda 5ta, Buxoroda 10 ta, Jizzaxda 5 ta, Qashqadaryoda 4 ta, Navoiyda 6 ta, Namanganda 4 ta, Samarqandda 11 ta, Sirdaryoda 9 ta, Surxandaryoda 4 ta, Xorazmda 2 ta, Toshkent viloyatida 33 ta, Toshkent shaxrida 23 ta va respublika miqyosida 13 ta milliy-madaniy markaz faoliyat yuritmoqda.

Milliy mansublik buyicha olinganda, respublika buyicha arab, belarus, bolgar, boshqird, grek, gruzin, dungan, litva, xitoy, qrim tatarlari va qoraqalpokqarning 1 tadan, ozarbayjon, polyak va buxoro yahudiylarining 3 tadan, tojik, turk va ukrainlarning 4 tadan, arman, nemis, uyg‘ur va yahudiylarning 5 tadan, qirgiz va turkmanlarning 6 tadan, tatarlarning 9 ta, qozoqlarning 14 ta, ruslarning 19 ta, koreyslarning 29 ta milliy-madaniy markazi faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan rus milliy-madaniy markazining hayoti va ishlari haqida har oyda bir marta chiqadigan “Vestnik RKS”dan bilib olish mumkin. Bugungi kunda O‘zbekistonda 1100 mln. rus diasporasi yashab

<sup>40</sup> [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

<sup>41</sup> Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. - Т.: Ўзбекистон. 2004. - Б. 79.

<sup>42</sup> <http://www.pv.uz/?inc=6&snd=&news=3636>

kelmoqda<sup>43</sup>. Masalan, birgina Sirdaryo viloyatida 30 mingdan oshiq rus diasporasi yashab kelmoqda. Markaz muntazam ravishda Navro‘z, Konstitutsiya kuni, Mustaqillik kunini keng nishonlaydi va xayriya ishlarini olib boradi. Markazning 23-son bolalar uyini otalikdagi va Toshkentdagi 50-son maktab rusiyzabon maktablar uchun o‘quv-metodik markaz bo‘lib xizmat qilishi e‘tiborga molikdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov 2004 yilda O‘zbekiston Respublikasi rus milliy madaniy markazining 10 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish qatnashchilariga tabrik so‘zida: “Bugungi kunda mamalakatimizda milliy madaniyat markazlari tomonidan amalga oshirilayotgan, odamlarda ertangi kunga ishonch tuyg‘ularini mustahkamlashga, bizdan ko‘ra aqlli, bilimli, kuchli va albatta baxtli bo‘ladigan yangi avlodni tarbiyalashga qaratilgan ko‘p qirralari, bunyodkorlik ishlari naqadar muhim va mas‘uliyatli ekanligini, shubhasiz, barchamiz yaxshi anglaymiz.

Shuni alohida mamnuniyat bilan ta’kidlamokchimanki, Rus madaniyat markazi o‘zining samarali faoliyati bilan ana shu murakkab vazifalarni hal etishdek xayrli ishga ulkan hissa qo‘shmoqda va yurtimizda haqli ravishda obru-e‘tibor qozonmoqda.

Rus madaniyat markazi faoliyati biz uchun yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, u Rossiya bilan do‘stlik, har tomonlama muvaffaqiyatli rivojlanyotgan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash yo‘lida o‘ziga xos muhim ko‘prik vazifasini o‘tab kelmoqda”<sup>44</sup>.

Rus diasporasi O‘zbekistonning nafaqat madaniy, balki iqtisodiy rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Ular yirik sanoat korxonalarini boshqarib, ma’lum yutuqlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Masalan: Respublika “Sifat” markazi bosh direktori V.ye.Ustyugin, Navoiy non-metallurgiya kombinata bosh direktori N.I.Kucharskiy, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi raisi

<sup>43</sup> <http://www.pv.uz/?inc=6&snd=&news=3635>

<sup>44</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси рус маданият марказининг 10 йиллигига бағишланган тантанали йигилиш қатнашчиларига табрик сўзи // Халқ сўзи. - Тошкент, 2004. 6 ноябр. - №. 230 (3505).

birinchi o‘rinbosari T.A. Rogoznikova va boshqalar O‘zbekiston taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shishmoqda.

2004 yil hind milliy-madaniy markazi ko‘makida o‘zbek ayollarining Hindistonga tajriba almashish maqsadida yuborilgani natijasida nafaqat ikki millat o‘rtasida o‘zaro xurmat, do‘stlik rishtalari mustahkamlandi, balki ish o‘rganish natijasida yangi ish joylar yaratilmoqda. Bu esa o‘zbek ayollariga bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida faol qatnashish imkoniyatini bermoqda. 2004 yilning yilning noyabr oyida Z.Abdullaeva boshliq 14 nafar tadbirkor ayoldan iborat guruh birinchi marotaba Hindistonda “Xalqaro savdo ko‘rgazmasi”da qatnashishi buning yaqqol misolidir.

Darhaqiqat, yuqorida fikr yuritilgan tadbirlar avvalambor ikki millat, ikki davlat o‘rtasida do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, gruzin milliy-madaniy markazi “Megobroba” deb nomlangan. Bu so‘z gruzin tilida “Do‘stlik” ma'nosini anglatadi. Bu o‘zbek va gruzin xalqi o‘rtasidagi do‘stlik ramzi sifatida qabul qilindi. Do‘stlik mustahdam bo‘lgan yurtda esa, albatta, tinchlik-totuvlik, inoklik, birdamlik, rivojlanish xukm suradi. Bu markazning kurilish ishlari hali tugamaganligiga karamasdan milliy, diniy bayramlari nishonlanib kelinmokda. Masalan: kuz faslida utkaziladigan uzum yigim-terim bayrami “Tveli” va bahorda nishonlanadigan diniy “Gergoba” bayrami har yili nishonlanib kelmoqda. Eng aziz bayramlardan biri Gruziya va O‘zbekistonning mustaqillik kuniga bag‘ishlangan tadbirlari alohida ko‘tarinki ruxda o‘tkaziladi.

Prezident I.A.Karimov “Har qanday millat, u naqadar kichik bo‘lmasin, insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning tili, madaniy va boshkd xususiyatlarini yo‘q, bo‘lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi

bo‘lmogi kerak. Va bu maqsad, birinchi navbatda, ushbu etnik guruhlarini o‘z ichiga oluvchi har bir alohida davlatning vazifasidir”<sup>45</sup>, -deb ta'kidlaydi.

Prezident I.A.Karimov milliy madaniy markazlarning ish faoliyatiga e'tibor berib, “Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir xalq va millatning etnik o‘ziga xosligi, tili, urf-odati, an'alarini saqlashda muhim rol uynaydigan milliy-madaniy markazlarning faoliyatini rivojlantirish uchun bugun barcha shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratar ekanmiz, bu bilan biz odamlarning tinch va osoyishta hayoti, ertangi kunga ishonchining mustahkam poydevorini bunyod etgan bo‘lamiz”, - deb ta'kidlaydi<sup>46</sup>.

So‘nggi yillarda respublikamizda yashayotgan va ozchilikni tashkil etgan millatlar farzandlari ta'lim-tarbiyasiga ham e'tibor kuchaytirildi. O‘zbekistonda 2,5 mingdan ortiq o‘quvchisi bo‘lgan 50 ga yaqin qrim-tatar maktabi, 130 ta o‘quvchiga ega bo‘lgan 2 ta nemis maktabi, bittadan kurdlar va yahudiylar maktablari faoliyat ko‘rsatmoqda. Toshkentda ikkita yahudiy o‘rta maktabi bo‘lib, 321-maktab-gimnaziyada, yahudiy madaniyati, urf-odatlarini, ivrit tilini o‘rganishga ixtisoslashgan. Bundan tashqari 9000 dan ortiq qozoq, 300 dan ortiq tojik, 1000 dan ortiq qirgiz farzandlari va yana 1,5 mingga yaqin turkman farzandlari ham o‘z tillarida ta'lim-tarbiya ola boshladilar<sup>47</sup>.

O‘zbekiston Xitoy, Koreya Respublikasi bilan ham diplomatik aloqalar urnatgan. 1992 yil Toshkentda Koreya Respublikasi Ta'lim markazi tashkil etildi. Bunday markazlar Xitoyda, Rossiya, Yaponiya, AKShda, jami dunyoda 30 ta markaz faoliyat yuritadi. Eng yiriklaridan biri Toshkentda joylashgan markaz hisoblanadi. Mustaqillik yillarida 10 mingdan oshiq insonlar koreys tilini o‘rgandi. Markazning 30 foiz eshituvchilari turli millat vakillari - o‘zbeklar, ruslar, tatarlar va boshqa millat vakillaridir. Koreys tilida “Txonil” (Birlik), “Kore sinmun”

<sup>45</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасила: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. — Т.: Ўзбекистон. 1997. - Б. 73-74.

<sup>46</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмок керак. 10 жилд. — Т.: Ўзбекистон, 2002. - Б. 182.

<sup>47</sup> Эргашев К. Ўзбекистон халқи таълимининг ривожланиш тарихи. - Т., 1998. - Б. 64.

(Koreys gazetasi) ro‘znomalari chiqmoqda va bu ikki millat o‘rtasidagi rishtalarni mustahkamlab kelmoqda.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda bugun O‘zbekistonda 175 ming koreys diasporasi yashaydi<sup>173</sup>. Koreys milliy madaniy markazi RBMM, Milliy madaniy markazlar assotsiatsiyasi, Qozog‘istondagi koreys madaniyat markazi, Toshkentda Koreya Respublikasi elchixonasi, Janubiy Koreya tadbirkorlari, Xorij koreys fondi bilan hamkorlik qiladi.

Respublika Baynalmilal madaniyat markazi bergan ma'lumotlarga Karaganda bugun 5 ta ukrain milliy-madaniy markazi ro‘yxatdan utgan bo‘lib, ukrain diasporasi ko‘proq Surxondaryo viloyatida, Samarqand viloyatida, Farg‘onada istiqomat qiladi. Ukrain diasporasi o‘z muammolarini, ehtiyojlarini "O‘zbekistonning xorij mamlakatlar bilan madaniy va do‘stlik aloqalari kengashi", Respublika Baynalmilal madaniyat markazi, "O‘zbekiston-Ukraina" do‘stlik jamiyati orqali hal qiladi. Toshkent shahri Mirobod tumanidagi T.G.Shevchenko nomidagi 110-o‘rta maktabda 2001 yil mart oyida ukrain tilini o‘rgatuvchi fakultativ sinf ochilgan. Sinfda 35 o‘quvchi ukrain tilidan saboq olmoqda. Ukrain diasporasini birlashtirgan ukrain milliy-madaniy markazlarga yordam berish maqsadida Ukrain elchixonasida jamoat kengashi tuzilgan. Yangiyo‘l madaniy markazi tomonidan ukrain tilida "Nadya" ro‘znomasi chiqdi. Uning saxifalarida doimiy ravishda tarixiy Vatanlari, O‘zbekistondagi ukrain diasporasining hayoti haqida ma'lumotlar berib boriladi.

Yukorida keltirilgan misollardan kurinib turibdiki, milliy madaniy markazlar mamlakatimizning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy hayotida faol ishtirok etib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda turli millatga mansub yurtdoshlarimiz O‘zbekiston ularning Vatani ekanligini tobora teranroq anglab yetmoqdalar, milliy madaniyatlarning gullab-yashnashini butun O‘zbekiston taraqqiyotining bir qismi sifatida qabul kilmokdalar va islohotlarning amalga oshirilishiga o‘z hissalarini qo‘shishga intilmokdalar.

Millatlararo munosabatlarni takomillashtirish masalalari titul millat bo'lgan o'zbeklarga alohida mas'uliyat yuklaydi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “respublika aholisi o'rtasida ko'pchilikni tashkil qiladigan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi ko'p sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan iborat”<sup>48</sup>.

Globalashuv turli millatlarning o'zaro aralishib yashash jarayonlarining kuchayishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu jarayonning millatlararo munosabatlarga ta'siri nixoyatda katta. Ayniqsa, globalashuv ko'pmillatli mamlakatlarda milliy madaniyatlardagi o'ziga xoslikning asta-sekinlik bilan yemirilishiga olib kelishi mumkin. S.Otamuradovning fikricha, bu jarayondagi muammo shundaki, “titul” millatning ma'naviyatidagi o'ziga xoslikka qaraganda “titul” bo'lmagan millat va elat vakillarining o'ziga xosligiga o'tkazadigan ta'siri kuchli bo'ladi<sup>49</sup>. Shuning uchun ham millatlararo munosabatlarni takomillashtirish masalalari titul millat bo'lgan o'zbeklarga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Qaerda millatlararo totuvlik g'oyasining axdmiyati anglab yetilmasa, ularga rioya qilinmasa jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, tinchlik va barqarorlikka xavf soladi.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning o'z ona tilida o'qishi uchun oliy o'quv yurtlarida, umumta'lim maktablarida keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da (1997 yil) aniq ko'rsatib berilgan. Ko'plab

<sup>48</sup> Каримов И.А. Ватан саждагох каби муқаддасдир. 3-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - Б. 363.

<sup>49</sup> Отамуратов С. Глобалашув жараёнида миллий ва миллатлараро муносабатларнинг истиқболлари // Ўзбекистон - бағрикенг диёр. - Т.: Ўзбекистон, 2007. - Б. 102.

tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilmokda. Masalan: O'zbekistonda birgina kozok, tilida ukitiladigan 627 ta maktab bor<sup>50</sup>. Bu omil millatlararo totuvlik g'oyasining xalqaro munosabatlarni mustahkamlashdagi muayyan hissasidir.

Mustaqillik tufayli jamiyatimizning barcha sohalarida bo'layotgan tub sifat o'zgarishlar millatlar va millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda shulardan to'liq foydalangan holda milliy va millatlararo munosabatlar sohasidagi barcha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish borasida keng miqyosda ijobiy ishlar qilinmokda. Jumladan: boshqa millat vakillarining ona tilida ta'lim olish borasidagi ehtiyojlari to'laroq qondirilmoqda. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, madaniy va ma'naviy boyliklarni taqsimlash masalalarida ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslanmoqda. Tarixiy Vatanlari bilan aloqalar mustahkamlanmoqda. Milliy tillarda ro'znomalar, kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar nashr etilmoqda. Ko'pchilik millatlarning ehtiyojlarini hisobga olib televizion ko'rsatuv va radio eshittirishlar hajmi kengaytirilmoqda.

Ko'p millatli davlatlarda ijtimoiy-etnik munosabatlardagi uyg'unlikni ta'minlashda barcha etnik guruhlarning manfaatlarini e'tiborga olish katta ahamiyat kasb etadi. Bir millat "o'z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining xuddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro'yyobga chiqarmasligi lozim. Ba'zi millat, etnoslar vakillarining boshkdarga takabburlik bilan, mensimay munosabatda bo'lishi kabi xolatlar yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday sharoitga barham berish lozim”.

Mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik g'oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani O'zbekiston rivojida qo'lga kiritilgan eng katta yutuklardan biridir. Bejiz emas, Prezidentimiz I.A.Karimov: “Bizning bugun erishgan eng katta yutug'imiz, eng katta boyligimiz-xalqimizning akl-zakovati, uning tanlagan

---

<sup>50</sup> Ўзбекистон - Ватаним маним (4-булим) // Ўзбекистон - умумий уйимиз. - Т.: Ўзбекистон. 2001. - Б. 113.

yo‘limizga ishonchi, mamlakatimizda x,ukm surayotgan xalqlararo do‘stlik, fukarolar totuvligi, yurtimizdagi tinchligi va osoyishtaligidir”<sup>51</sup>, - deb ta'kidlaydi.

## **2.2. Ma'kuraviy poligonlarda globallashuv va O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining vazifalari**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanok, O‘zbekiston qat'iyatlik va aniqdik bilan xalqaro munosabatlarda faol sub'ekt pozitsiyasini egallab kelmovda. Bu hol asosan davlatning boshlangich holati bilan bog‘liq. Bunga asosan millatning yukori gomogenligi (axolining 80 foizi — o‘zbeklar), regionda nisbatan yukori urbanizatsiyasi darajasi (ma'lumki, siyosiy fikr yuritish avvalambor shaharlarda rivojlanadi)ga egaligi, qulay geografik joylashuvi va tabiiy resurslarga boyligi, xalq, mentaliteta va milliy ma'kura, tarixda rivojlangan davlatchilik an'analari va siyosatda boy o‘tmishga egaligi kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyo axolisining 95 foizidan ko‘pini uzida mujassamlashtirgan 165 davlat tan oldi. Ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. 1998 yil Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 42 taga yetdi. Bular jumlasiga AKXD, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Xindiston, Turkiya, Pokiston va bonnalarni kiritish mumkin. Shuningdek, O‘zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq davlatda -AKXD, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O‘zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi<sup>52</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yutuqlari uning jahon hamjamiyatining tula huquqli va faol sub'ektiga aylangani bilan bog‘liq U bir qator yirik xalqaro tashkilotlarning, jumladan, BMT va uning bir qator maxsus

<sup>51</sup> Karimov I.A. Bizdan Ozod va Obod Vatan qolsin. 2-jild. - T.: Ўзбекистон. 1996. - Б. 296.

<sup>52</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiёт йўлида. - T.: Ўзбекистон. 6-jild. 1998. - Б. 239.

muassasalarining doirasida faoliyat ko'rsatmoqda. Ya'ni, Xalqaro Mexnat Tashkiloti, Xalqaro Sog'likni Saqlash Tashkiloti, ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Qo'shilmaslik tashkiloti, ShXT va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosida davlat mustaqilligi, o'zbek xalqining yuksak manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi yotadi. Tabiiyki, bunda o'z sheriklarining manfaatlari, ularning geosiyosiy yo'nalishlari hisobga olinadi. Chunki I.A.Karimov ta'kidlaganidek, davlatlararo maqsadlarda mushtaraklik bo'lmasa, tashqi siyosat ham bo'lmaydi.

Bizning xalqaro maydonda ilk qadamlarimiz munosabatlarimizning davlat sha'niga va hurmatiga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning bopuqa davlatlari singari, jahon hamjamiyati hayotida faollik ko'rsatishni o'z mustaqilligining tashqi siyosatdagi ustuvorligi deb hisoblaydi.

Globalashuv sharoitida insonparvarlikning yuksak va olijanob tamoyillariga tayanish O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosini tashkil etadi. Bu tamoyillar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov olib borayotgan barcha muzokaralar, safarlar va uchrashuvlarda namoyon bo'lmoqda. Bu yo'l Tojikistondagi mash'um voqyealarga bildirilgan munosabatlarda ayniqsa yaqqol ko'rinadi. O'zbekiston rahbariyati, I.A.Karimov qon-qarindoshlarning o'zaro urushi qo'shni, do'st xalqqa keltirgan falokatga befarq qarab turolmas edi. Shu munosabat bilan 1992 yil sentyabrida O'zbekiston Prezidenti birinchi bo'lib BMTning Bosh kotibi Butrosga murojaat qildi. 1993 yil mart oyida Butros G'oliyga yuborgan ikkinchi maktubida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tojik qochoqlarini Vataniga qaytarishga BMTning yordam berishi masalasini qo'ydi. Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlashning eng murakkab muammolarini hal etishda O'zbekistonning ishtiroki - bu samimiy, insonparvarona va beg'araz harakatlar ekanligini ko'rsatuvchi ko'pgina boshqa ishonchli misollar ham bor. Bular esa aynan milliy istiqlol g'oyasi maqsadi va asosiy vazifalarining negizni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning tula huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizoli masalalarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va boshqa umumqabul etilgan tamoyil va qoidalarga asoslanadi. Bu tamoyil va qoidalar O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat sohasidagi faoliyatining asosiy tamoyillari” nomli Qonunda e'tirof etilgan va rivojlantirilgan.

Hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri har qaysi mamlakatda sodir bo‘layotgan salbiy, ijobiy voqyea-xodisalar dunyoning boshqa xududlariga tez orada tarqalishi va, o‘z navbatida, xalqaro munosabatlar tizimiga ta'sirda bo‘lishidir. Xalqaro munosabatlarda jadal suratda rivojlanib borayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlari esa buning yaqqol misolidir.

Millatlar va milliy manfaatlar, milliy ehtiyojlar mavjud ekan, ularni nazar-pisand qilmaslikka aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bir millatning manfaatlari boshqa millat va elatlarning manfaatlaridan ajratilmagan xolda o‘rganilishi lozim. Milliy va umumilliy manfaatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlir. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratib yoki bir-biriga qarama-qarshi kuyib bo‘lmaydi. Umumilliy manfaatlar milliy manfaatlarga qaraganda ustuvor turadi.

Milliy manfaat - xalqaro munosabatlarda ikki ma'noda ishlatiladi:

1. Ma'lum bir davlat tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini aniqlab beruvchi tadqiqot quroli sifatida.

2. U yoki bu davlat siyosatini oqlash uchun ishlatiladigan keng ma'nodagi siyosiy tafakkur to‘g‘risidagi tushuncha sifatida.

Har ikkala ma'noda ham milliy manfaat davlat siyosatining tashqi muhit bilan o‘zaro munosabati vositasi deb qaraladi. U faqat suveren davlatga xos va asosan tashqi siyosatga taalluqli: ichki rang-baranglik asosan davlat manfaati (jamiyat manfaati) deb hisoblanadi.

Tashqi siyosatning milliy-g'oyaviy negizlarini o'rganish, ularni shakllantirish va ilmiy tahlil etish hamda, shu orqali kelajak istiqbollarini milliy g'oya yordamida mustahkamlash har bir davlat uchun, uning milliy manfaatlari, maqsadlari va qadriyatlarini uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, islohotlarning samaradorligi va umuman mamlakatning ichki taraqqiyoti davlatning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining samaradorligi bilan bog'liqdir. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish muhimki, O'zbekiston jahon hamjamiyatining mustaqil sub'ekti sifatida o'zining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini Respublika rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan mustaqillik g'oyalariga asoslangan milliy g'oya ruhida olib boradi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat faoliyati sohasidagi milliy istiqbol g'oyasi asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

*Birinchi*dan, tashqi siyosatni teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida tashkil etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

*Ikkinchi*dan, biron-bir davlatning ta'sir doirasiga tushib qolishga yo'l qo'ymaslik, jahondagi barcha mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarni mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilash;

*Uchinchi*dan, ikki tomonlama va ko'ptomonlama shartnomalar asosida o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish;

*To'rtinchi*dan, mamlakatning jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimotida keng ishtirok etishi uchun ochiq turdagi iqtisodiyotni barpo etish.

Lekin yuqoridagi asoslarning ustuvor yo'nalishlarini chuqur idrok etish uchun yaqin o'tmishga, sovet totalitar tuzumi hukmronlik qilgan davrga haqqoniy nazar tashlash lozim. Mustabid tuzum hukmronligi davrida 15 ta respublikani birlashtirgan SSSR qonunlarida, farmonlarida O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan "mustaqil" xalqaro munosabatlar o'rnatish va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega suveren Respublika hisoblanadi, deyilgan. Haqiqatda esa,

Konstitutsiyada belgilangan xalqaro huquqlar shunchaki siyosiy-mafkuraviy niqob edi, xolos. Vaholanki, O‘zbekiston mustaqil ravishda xalqaro maydonga chiqish huquqidan mahrum edi. Nafaqat tashqi siyosiy, balki tashqi iqtisodiy aloqalarga doir davlat muassalariga ham eta emas edi. Unda mustaqil ravishda tashqi aloqalarni o‘rnatish huquqi mutlako bulmagan. Xalqaro munosabatlar faqat Moskvaning ruxsati va qattiq nazorati ostida amalga oshirilardi. O‘zbekistonning sobiq SSSRni tashqi iqtisodiy aloqalaridagi ishtiroki respublikani faqat tovar eksport qiluvchi darajasiga tushirib qo‘ygan imperiyaviy mafkura asosida amalga oshirilardi.

Tashqi siyosat masalalarini mustaqil hal qilish tajribasi amalda bulmagan bir sharoitda O‘zbekiston Prezidenti mamlakat yetakchisi sifatida respublika tashqi siyosiy faoliyatini rivojlantirishning milliy-g‘oyaviy negizlarini belgilab berdi. Bu negizlar I.A.Karimovning "O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li" kitobida o‘z aksini topdi va milliy-ma'naviy davlat konsepsiyasi darajasiga ko‘tarildi<sup>53</sup>. Prezidentimiz I.A.Karimov zimmasiga yo‘q narsani yaratish mas'uliyati yuklangan edi.

Prezident I.A.Karimovning Germaniyaga safari uning tashqi siyosat borasidagi imkoniyatlari tobora kengayib borayotganini, vaqt o‘tgani sari bu fazilat takomillashib, kamolotga yetayotganini ko‘rsatdi. Yuksak madaniyatga asoslangan diplomatiya, muzokaralarda tenglikni saqlab turish, ayni paytda o‘zini yerga urmagan xolda, suhbatdoshining izzatini joyiga qo‘yish, manfaatlar to‘qnashganda esa qat'iyat, o‘ziga ishonch va o‘zgani ishontira olish, xalqaro muammolarni hal etishda donishmandlik bilan yondoshish va asosli fikrlarni o‘rtaga tashlash salohiyatini yorqin namoyon etadi.

O‘zbekiston rahbarining Germaniyaga borishi haqidagi xabar o‘sha paytlarda dunyoga tez tarqaldi va katta shov-shuvlarga, munozaralarga sabab buldi. Jahon siyosatdonlari, sharxlovchilar, voqyeatalab muxbirlar Karimov nemis yurtidek boy

---

<sup>53</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. - Т.: Ўзбекистон. 1992.

va taraqqiy etgan mamlakatga iltijo bilan, moddiy yordam so‘rab keldi, degan xulosada edilar.

Shuning uchun tayyora pillapoyasidayok Prezident Karimovni savollarga ko‘mib tashlashdi-yu, yosh, xali oyoqda turib ulgurmagan mamlakat rahbarining g‘oyat sokin va bamaylixotir javoblaridan xayratga tushishdi. “Men O‘zbekistonni nemislarga tanitgani keldim”,<sup>54</sup> - dedi Prezident. Safar davomida I.A.Karimovning o‘z yurti, millati, uning tarixi, jahon sivilizatsiyasiga daxldor madaniyati, rivojlanishning juda katta iqtisodiy, tabiiy va ma'naviy imkoniyatlariga eta ekanligi, shuning uchun ham O‘zbekiston faqat tengma-teng hamkorlikka tayyorligi haqidagi muloxazalari chindan ham dunyo jurnalistlari diqqatini tortdi. Bu ular uchun kutilmagan xolat edi.

Aynan milliy g‘oya insonlarni milliy g‘ururli, or-nomusli, xalol-pok, iymonli, e'tiqodli, sadoqatli, vatanparvar etishga chorlaydi. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “...xalqimizning asriy an'analari, urf-odatlari, tili va ruxiga asoslangan holda milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mushtaraklikda kelajakka ishonch, ona Vatanga muxabbat ruhida tarbiyalash, insonparvarlik, vijdonlilik, mardlik va chidamlilik adolat, bilimga va ma'rifatga intilish tuyg‘usini odamlar qalbi va ongiga yetkazish uchun xizmat qilmog‘i darkor. U davlat fuqarolarining buyuk maqsad yo‘lidagi ruhiy yaqinlashuviga hamkorlik etmog‘i lozim”<sup>55</sup>.

Albatta, davlat - jamiyat siyosiy tizimining o‘zagi, mamlakat barqarorligi va izchil taraqqiyoti uchun mas'ul bo‘lgan siyosiy institutdir. Shu ma'noda, u jamiyatning o‘z milliy g‘oyalari atrofida mustahkam jipslashuvi, fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi asosida hayotda mafkuraviy jarayonlarning muvofiqdashuvidan manfaatdor. Bosh islohotchi sifatida davlat ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, kelajak hayot manfaatlaridan kelib chiqib, jamiyatda milliy istiqlol g‘oyalarini keng yoyish borasida faoliyat olib boradi.

<sup>54</sup> Жўраев Н.К. Агар огоҳ сен... - Т.: Ёзувчи. 1998. - Б. 115.

<sup>55</sup> Абилов У. Миллий ғоя: маънавий омиллар. - Т.: Маънавият, 1999. - Б. 5.

Buni xorij tajribasida ham yakdol kurish mumkin. Bu mamlakatlarda yuzaki qaragandagina, g'oyaga, mafkuraga u qadar katta e'tibor berilmaydigandek tuyuladi, xolos. Masalan, AQShni olaylik. Bu yerda har bir inson ongiga "Sen amerikaliksan, ozodsan", "sening ozodligingga daxl qilishga xech kimning haqi yo'q", degan g'oya bolaligidan singdiriladi. Natijada bu mamlakat fuqarosi, dunyoning qaerida bo'lmasin, "Men-amerikalikman" deb g'ururlanadi va atrofdagilarni ham shu fikrga bo'ysindiradi. Yoki Angliya va ingliz tili amal qiladigan davlatlardagi maktablarda "men" so'zini bosh harf bilan, "siz" so'zini esa, aksincha, kichik harf bilan yozishga o'rgatiladi<sup>56</sup>.

Shuning uchun Ismoil Gaspirali "Ovrupe bir keksa choldir, tajribasi ko'pdir. Ulug' yoshiga xurmatimiz bor. Tajribasidan o'rganamiz. Lekin xatolarini takrorlamaymiz... Ovrupada nimani ko'rsak, yosh boladek olib yugurmaymiz. Esli-xushli insonlardek "Bu nimadir? Oqibati nima bo'ladi? Vijdon va haqdoniyatga uyg'unmi?" deya aqltarozisiga tortib olamiz", - deb ta'kidlagan edi<sup>57</sup>.<sup>199</sup> Bu da'vat bugungi murakkab bir sharoitda o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Chunki otabobolarimiz o'gitlarida o'zlikni anglash, dunyoviylikka intilish, bosiqlik va bag'rikenglik bizga meros qolgan. Bular esa o'z navbatida ajdodlarimiz orzu qilgan mustaqillik, mamlakatda tinchlik-totuvlikni ta'minlashning asosiy omillaridir.

Insoniyat XXI asr bo'sag'asida chegara bilmaydigan yangi muammolarga duch keldi. Terrorchilik, narkobiznes, giyohvandlik, ekologik falokatlar, buyuk davlatchilik, shovinizm, diniy ekstremizm, ma'naviy qashshoqlik shular qatoridandir. Shu bilan birga dunyoda globallashuv, axborot tizimining takomillashuvi, universal texnologiyalarni joriy etilishi bilan bog'liq ulkan jarayonlar ham sodir bo'lmoqda.

Dunyoni termoyadro xavfidan qutqarish, xalqlar va davlatlar o'rtasida mu'tadil iklimni vujudga keltirish, diniy ekstremizm, fanatizm, xalqaro terrorizmga

<sup>56</sup> Ганиев А. Фарб оламидаги ахлоқий муаммолар. - Т.: Борис, 2007, - Б. 6.

<sup>57</sup> Миллий уйғониш. - Т.: Маънавият. 2002. - Б. 33.

qarshi kurashish, narkotik moddalarning tarqalishiga chek kuyish singari global muammolarni, mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishda yuksak siyosiy madaniyatga erishish XXI asrning dolzarb masalalaridandir. Prezident I.A.Karimovning BMT 48-sessiyasida ushbu global muammolar yechimi yuzasidan bildirgan quyidagi muloxazalari e'tiborga molikdir: "Dunyo mojarolarini hal etishda sharkrnanununosabatlar ilmini egallash zarur". Yurtboshimiz shu tariqdabuyuk davlatchilik shovinizmi, katta davlatlarning kichik davlatlarga tazyiki, zuravonlik illatlariga barham berish, dunyo muammolarini hal etishda va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshilik sari burishda muzokaralar yo'lini tanlash, har qanday mojaroli masalalarni aql-idrok, yuksak siyosiy tafakkur va madaniyat orqali hal etish zarurligini uqtirgan edi.

Sharqona munosabatlar esa asrlar davomida shakllangan va Prezidentimiz tomonidan asoslangan milliy istiqlol g'oyasining umumbashariy tamoyillarida o'z aksini toptan. Ular quyidagilar: insonparvarlik tamoyili; illiy maxdudlik, agressiv millatchilik va shovinizmdan holi bo'lish; Adolat, tinchlik, tenglik, bunyodkorlik va demokratiya g'oyalarni o'zida ifoda ettirish; Jahon xalqlari yaratgan sivilizatsiya yutuqlarini asrash va keyingi avlodga yetkazishda ma'naviy-ruhiy omil bo'lish; Insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning tahdidini keng tashviqot qilish va unga qarshi kurashda jahon xalqlari birligini vujudga keltirishga xizmat qilish; Bugungi kunda davlat, mintaqa va xalqaro hamjamiyatning barqaror rivojlanishi, taraqqiyoti va xavfsiz hayot kechirishi davlatlarning o'zaro aloqalari va munosabatlaridagi bag'rikenglik tamoyillariga ham bog'liqlir. Milliy istiqlol mafkurasining millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalari aynan shu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Diniy bag'rikenglik g'oyasi - xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Diniy bag'rikenglikning rivojlanishi va mustahkamlanishi barcha insonlarni e'tiqodidan qat'i nazar milliy istiqlol g'oyasining maqsadlarini amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U nafaqat

insonlarning ongidan, balki qalbidan o‘rin olishiga yordam beradi. Bu g‘oya bugungi kunda nafaqat dindorlar, balki butun dunyo xalqlarining hamkorligini nazarda tutadi. Hamkorlik esa halollik va poklik, mex,r-shavkat, yaxshilik, tinchlik va do‘stlik kabi insoniy fazilatlarga tayanadi. Shuning uchun Prezidentimiz I.A.Karimovning “Insonning insoniyligini uyg‘otmoqchiman” degan fikrlari muhim ahamiyatga ega.

“Nezavisimaya gazeta” muxbiri Viktoriya Panfilovanning “SSSR tanazzulga uchragach, ko‘plab ruslar O‘zbekistondan kuchib ketishdi. Ularni mamlakatga qayta taklif etish istagi yo‘qmi?” degan savoliga Prezident I.A.Karimov: “Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, 1990 yilda mamlakatimizda 1 million 550 ming “slavyan millatiga mansub” kishi yashagan. So‘nggi 15 yil mobaynida ularning soni 1 millionga tushdi. Bunga faqat Ittifokning tarqalib ketganligi sabab bo‘lgani yo‘q. Arab, musulmon davlatlaridagi ayrim mafkurachilar mintaqamizda mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelganligini payqab, bu yerga kelib, masjidlar kurishga kirishgan, guyoki odamlarga dinimizni qaytara boshlashdi. Bu esa, to‘g‘risini aytish kerak, bu yerdagi axolining musulmon bo‘lmagan qismini muayyan darajada tashvishga solib qo‘ydi.

Yuqoridagi savolga kelsak, shuni aytmqchimanki, men shu kunlari respublikaga qaytib kelgan 70 nafar rus kishisiga fuqarolik berish to‘g‘risidagi farmonga imzo chekdim”,<sup>58</sup> - deb javob beradi.

Darhaqiqat, o‘zbek xalqi hamma zamonlarda nafaqat madaniyati bilan, balki bag‘rikengligi bilan alohida ajralib turgan. Milliy istiqlol mafkurasining diniy bag‘rikenglik g‘oyasi asrlar davomida xalqning asosiy belgisi bo‘lib kelgan va 2000 yil “Tinchlik madaniyati” xalqaro yig‘inida “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”ning ilk bor o‘zbek tilida chop etilishi alohida e‘tiborga ega bo‘ldi.

Yangi ming yillikka yo‘l ochib borar ekanmiz, dunyo xalqlariga do‘stlik va hamkorlik qo‘lini cho‘zamiz. Xavfsizlik, barqarorlik va sobitkadam rivojlanish

---

<sup>58</sup> Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар, деб ҳисоблашар эди. “Независимая газета” (Москва) мухбирининг саволларига жавоблари. 2005 йил 14 январь // Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч қимга қарам бўлмайди. 13-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1999. - Б. 133

degan soʻzlar buning ramzidir. Chunki, aynan ana shu tushunchalar har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ushbu poydevorni esa yurt tinchligi gʻoyasi mustahkamlab boradi.

80-yillar boshida Fargʻona vodiysida, ayniqsa, Namangan va Andijonda yashirincha islom maktablari ochila boshladi va ularning soni tez koʻpaydi. Chet eldagi, shu jumladan, Saudiya Arabistonidagi musulmon tashkilotlari bilan aloqa bogʻlash natijasida vodiya Oʻrta Osiyo uchun anʼanaviy boʻlgan xanafiya mazhabiga qaraganda ancha radikalroq xanbaliya mazxabining, soʻngra esa vahhobiylilikning taʼsiri kuchaydi.

Oʻzbekistonning mana shu mintaqadagi axvolini koʻp yillar davomida batafsil oʻrgangan Donald Karlayl bunday deb yozadi: “Portlashga moyil boʻlib turgan Fargʻona vodiysida Karimov hal qilishga majbur boʻlayotgan qiyinchiliklar miqyosiga yetarli baho bermaslikdan tiyilish kerak. Gʻarbdagilarning fikriga qaraganda, goʻyo Toshkent islom fundamentalizmi xatarini boʻrttirib yuborayotgandek. Ehtimol, bu toʻgʻridir, ammo faqat maʼlum darajada, xolos. Lekin Karimovni tashvishlantirayotgan narsa sarobdir, degan fikrga aslo qoʻshilib boʻlmaydi. Fargʻona masalliqni aralashtirib, boʻtqa pishirilayotgan dekcha emas, balki iqtisodiy, diniy va elatlararo taranglik, etnik nizoda kaynab turgan, istagan paytda toshib, Oʻzbekiston, Tojikiston va Qirgʻiziston uchun gʻoyat dahshatli oqibatlarni keltirib chiqarishga tayyor xolatdagi doshqozondir”<sup>59</sup>.

Yuqoridagi qayd etilgan mulohazalar ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fuqarolarimizda buzgunchi gʻoyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, missionerlik harakatlarining sodir etilishiga yoʻl qoʻymagan xolda diniy bagʻrikenglik madaniyatini kamol toptirish ishlariga alohida eʼtibor berish zarurligini koʻrsatadi.

---

<sup>59</sup> Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Президент И.А.Каримов тарафдорининг танқидий мулоҳазалари. - Т.: Ўзбекистон. 2001. - Б. 189.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo‘lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi.

“Ayni vaqtda mustaqillik bizdan zimmamizga olgan xalqaro majburiyatlarga rioya etish va ularni bajarishni, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi talablariga, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlariga qat'iy amal qilib yashash mas'uliyatini so‘zsiz yuklaydi.

Yuqorida ko‘rilgan masala va keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, milliy istiqlol g‘oyasining har tomonlama namoyon bo‘lishi, boyishi, millat hayotiga va xalqaro muloqot sohasiga ko‘tarilishi ayni bir vaqtda O‘zbekiston xalqaro munosabatlarining mustahkamlanishiga, Vatanimiz qadriyatlarining jahon bo‘ylab keng tarqalishiga xizmat qiladi.

Milliy g‘oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko‘ndalang qo‘yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo‘layotgan g‘oyaviy, ma'naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g‘oyaga bo‘lgan ehtiyojini keskin kuchaytiradi.

Shuning uchun ham milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o‘zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy istiqlol g‘oyasidan samaraliroq va kuchliroq vosita yo‘q. Bu g‘oyani sof insoniy munosabatlar va his-tuyg‘ular asosida ko‘ra olsak, har bir fukaroning eng nozik kechinmalariga, xissiyotiga ta'sir etadigan g‘oya darajasiga ko‘tara bilsak, uning ta'sirchanligi, da'vatkorligi oshadi. Ayni paytda har bir fukaroning umumiy maqsadlar va manfaatlar yo‘lida birlashib yashashiga, birlashib kurashishiga erishiladi. Ana shunda boshkd har qanday begona g‘oyalar yo‘li tusiladi, soxta mafkuralarga odamlar ishonmay qo‘yadi.

## XULOSA

Tashqi siyosat davlat faoliyatining ko'p qirrali sohasidir. O'z navbatida milliy mafkura ham jamiyatning deyarli hamma soha va jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Uchinchi ming yillik ostonasida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari keskin tushgan, insoniyat hayotining universallashtirish, o'zaro aloqadorligi va daxldorligi tobora kuchayib borayotgan davr sifatida tarixga kirmoqda. Shu bilan davlatlararo, mintaqalararo manfaatlar ustuvorligi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va hatto zamonaviy texnologiyalarga asoslangan harbiy salohiyat o'zini tobora ko'proq namoyon etmoqda. Bu bevosita har bir davlat hududiy yaxlitligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan milliy manfaatlar bilan birga umuminsoniyat taraqqiyotiga daxldor bo'lgan muammolar yechimini topishni ham takozo etmoqda. Shu bilan birga etnoxududiy birliklar, bir chegara atrofidagi bir millatga mansub bo'lgan ikki davlat fuqarolari turmush tarzi va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy manfaatlardan tortib umumplanetar muammolargacha bo'lgan yaxlit tizimni qamrab oladi.

Ushbu masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mafkuraviy xilma-xillik, g'oyalarning karama-qarshiligi va milliy manfaatlar to'qnashuvi avj olgan bir paytda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiyot omillarini belgilab beradigan mafkura muammolarini, davlatlar, xalqlar ilgari surayotgan siyosiy qarashlar va g'oyalarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Globallashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy strategiyasining negizi sifatida milliy g'oyaning asosiy tamoyillarini, xalqaro munosabatlar, global muammolarni hal etishda O'zbekiston Respublikasi qarashlari, davlatlararo va mintaqalararo munosabatlarda uning qat'iy pozitsiyasi masalalari umuminsoniy qadriyatlar me'yorlari darajasida alohida tadqiqotlar tizimini taqozo etmoqda.

3. Mustaqillikning o'tgan davrida O'zbekiston umumplanetar o'zgarishlar jarayonlari oqimida o'zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy yangilanishlari dasturiga ega bo'lgan mamlakat sifatida o'ziga xos va o'ziga mos mavke egalladi. Jahon hamjamiyatida globallashuv sharoitida xalqaro munosabtlar tizimida zamonaviy sivilizatsiya va insoniyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazishga qodir bo'lgan davlat sifatida o'zining keng imkoniyatlarini namoyon etmoqda.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, mustaqil O'zbekiston davlati faol tashqi siyosat olib borayotgan mamlakatlar turkumiga kiradi. Bu bevosita o'zbek milliy diplomatiyasining jahon tajribalari bilan an'anaviy Sharq diplomatiyasining sintezi sifatida dunyoga keldiki, ayni ana shu xolat uning xalqaro maydondagi o'ziga xos qiyofasini yorqin va betakror namoyon etmoqda.

Mazkur BMI ishida xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Ma'lum bir mamlakat xududidagi millatlararo munosabatlar shu millatga mansub bo'lgan boshkd davlat fuqarolari hayotiga ham xavf solishi mumkinligini nazarda tutib, mintaqaviy muammolar yechimini topishda xalqaro munosabatlar tizimining va davlatlar tashqi siyosati mexanizmining yangi yo'nalishlarini kidirib topish zarur;

- Global muammolar turkumiga kiruvchi masalalarni hal etishda Prezident I.A.Karimovning BMTning 48, 50-sessiyalarida qilgan ma'ruzalarida bayon etilgan g'oyalarni amalda joriy etish imkoniyatlarini topish maqsadga muvofiqdir;

- Millatlararo munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tarish, diasporalarning tarixiy Vatanlari bilan aloqalarini tiklash uchun imkoniyat yaratish kerak. Ushbu imkoniyatni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida joylashgan elchixonalar qoshida xujjatlar to'planadigan maxsus burchaklar tashkil etish zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI****I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. - T.: O‘zbekiston. 1992.
2. Karimov I.A. Bizdan Ozod va Obod Vatan qolsin. 2-jild. - T.: O‘zbekiston. 1996;
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. - T.: O‘zbekiston, 1996;
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. - T.: O‘zbekiston, 1996. - B. 334;
5. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlika tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O‘zbekiston, 1997;
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. - T.: O‘zbekiston. 6-jild. 1998;
7. Karimov I.A. YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida so‘zlagan nutqi // Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild - T.: O‘zbekiston, 1999;
8. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir // Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. - T.: O‘zbekiston, 2000;
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild, - T.: O‘zbekiston, 2001;
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmok kerak. 10 jild. — T.: O‘zbekiston, 2002;
11. Karimov I.A. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani buyicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida Farmoyish // Xalq so‘zi. - Toshkent, 2001.19 yanvar. - № 14 (2576);
12. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi rus madaniyat markazining 10 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yigilish qatnashchilariga tabrik so‘zi // Xalq so‘zi. - Toshkent, 2004. 6 noyabr. - №. 230 (3505);

13. Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. -T.: O‘zbekiston, 2007;
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
15. Karimov I. A. Bizning yo‘limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. – T.: O‘zbekiston, 2012. – 312 b.
16. Karimov I. A. Mustaqillik – barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi. Xalq so‘zi. 2013 yil 2 sentyabr.
17. Karimov I. A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. O`zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
18. Karimov I. A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O‘zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9- may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqi. O‘zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.

## **II. Me'yoriy-xuquqiy manbalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2003.

## **III. Ilmiy, o‘quv adabiyotlar**

1. Abilov U. Milliy g‘oya: ma'naviy omillar. - T.: Ma'naviyat, 1999;

2. Achildiev A.S. Milliy istiqloq g'oyasi - millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili. Fals. fanlar dok. ...dis. avtoref. - T., 2004;
3. Berdaliev N.Sh. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy-ma'naviy xususiyatlari. Siyos. fan. nomz. ...dis. avtoref. - T., 2004;
4. Ganiev A. Fapb olamidagi axloqiy muammolar. - T.: Boris, 2007;
5. Gafurov S.M., Xaydarov A.A., Tulaganova N.U. Siyosatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. - T., 2006;
6. Gulmetov E. Globallashuv jarayoni va ma'naviy qadriyatlar // Milliy g'oya va ma'naviy vaddiyatlar: nazariya, metodologiya, amaliyot nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: Faylasuflar milliy jamiyati. 2005. - B. 143;
7. Jo'raev N.Q. Agar ogoh sen. -T.: Yozuvchi, 1998;
8. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. - T.: Sharq, 1998;
9. Qosimova N. A. Globalizatsiya v mirovoy politike. - T., 2004;
10. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. Prezident I.A.Karimov tarafdorining tanqidiy mulohazalari. - T.: O'zbekiston. 2001;
11. Мавланов И. Основные направления внешней политики и дипломатии Республики Узбекистон в трудах И.А.Каримова. - T., УМЕД, 2006;
12. Milliy istiqloq g'oyasi. Mas'ul muharrir I.Ergashev. -T.: Akademiya. 2005;
13. Milliy uyg'onish. - T.: Ma'naviyat. 2002;
14. Nazarov Q. Milliy istiqloq g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. - T., 2001;
15. Nazarov N.A. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojining siyosiy-falsafiy tahlili. Siyos. fan. dokt. ...dis. avtoref. - T., 2005;
16. Norboev A. G'oyalar targ'ibotida tushunchalar munosabati. // Milliy istiqloq g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari. - T., 2002;
17. Ortiqov M., Usmonov M. G'oya va mafkura. - T.: Yangi asr avlodi, 2001;

18. Otamuradov S. Globallashuv jarayonida milliy va millatlararo munosabatlarning istiqbollari // O'zbekiston - bag'rikeng diyor. - T.: O'zbekiston, 2007;
19. Otamurodov S., Mamashakirov S., Xolbekov A., Lafasov M. Markaziy Osiyo, g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. -T.: Ijod dunyosi, 2002;
20. Ochildiev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - T.: O'zbekiston, 2004;
21. Po'latov A.X. Markaziy Osiyoda etnosotsial munosabatlar: nazariya, muammolari, yechimlari. - T., 2003;
22. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash muammolari. - T.: O'zbekiston, 2003;
23. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. - T.: Akademiya, 2008;
24. Safoev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. - T.: JIDU, YUNESKO qatnashuvi doirasida chop etilgan, 2005;
25. Sultonmurod Olim. Xalq tayanadigan kuch. - T.: Ma'naviyat, 2001. - B. 5.
26. Ubaydullaev U. Xalqaro terrorizm tarixi va zamonaviy muammolari. -T.: Universitet, 2002;
27. O'zbekiston - Vatanim manim (4-bulim) // O'zbekiston - umumiy uyimiz. - T.: O'zbekiston. 2001;
28. Fozilxo'jaev I. Millatlararo munosabatlarni tartibga solish (davlat huquqiy aspektlari). -T.: Fan, 1991;
29. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. - T.: Ma'naviyat 2001;
30. Xo'janov B. Geomafkuraviy o'zgarishlar sharoitida milliy-etnik munosabatlar (Markaziy Osiyo misolida). Siyosiy fan. nomz. ...dis. avtor. - T., 2002;
31. Xusniddinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar.-T.: Mavorounnaxr, 2000;
32. Hasanov A., Munavvarov 3., Sirojiddinov Sh. O'zbekiston: dinlararo hamjihatlik - tinchlik garovi. YUNESKO. - T., 2005;

33. Hasanov A., Munavvarov Z., Minovarov Sh., Sirojiddinov Sh. O‘zbekiston: dinlararo hamjihatlik - tinchlik garovi. - T.: YUNESKO qatnashuvi doirasida chop etilgan 2005;
34. Shermuhammedova N. Milliy istiqlol g‘oyasi va armiya. O‘zbekiston Respublikasi Mudofa Vazirligi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - T., 2004;
35. Yangilanishlar konsepsiyasi: yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyoti. - T.: Ma'naviyat, 2002;
36. G‘oyaviy immunitet yoki xaloskorlik tuyg‘usi. - T.: O‘zbekiston, 2001;

#### **IV. Davriy nashrlar materiallari**

1. Bahodir Zokir. Globallashuv ziddiyatlari // Tafakkur. - Toshkent, 2004. - № 1. - B. 27;
2. Bahodir Zokir. Fapb va shark liberalizmi // Tafakkur. - Toshkent, 2004. - № 2. - B. 19;
3. Otamurodov S. O‘zbekning “men” i yoxud o‘zlikni anglash mashaqqati // Fidokor. - Toshkent, 2004. 22 aprel. - № 35 (656).
4. Markaziy Osiyo: birodarlik va taraqqiyot dialektikasi./“O‘zbekiston ovozi”, 1994 25 iyun.
5. Toshboev O. Globallashuv va milliy madaniyat // Tafakkur. - Toshkent, 2006. - № 1. - B. 20.

#### **V. Internet materiallari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz)
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
5. <http://www.pv.uz/?inc=6&snd=&news=3635>
6. <http://www.pv.uz/?inc=6&snd=&news=3636>
7. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)